

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI

ABDULLA QODIRIY NOMLI JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

UMUMIY PEDAGOGIKA KAFEDRASI

“Himoya qilishga ruxsat beraman”
Boshlang'ich ta'lismi pedagogikasi
fakulteti dekani

“ ” dots. Rabbimov M.T.

2013 y.

5141600 – Boshlang'ich ta'lismi va sport-tarbiyaviy ishi ta'lismi yo'nalishi bo'yicha
bakalavr darajasini olish uchun

**“Boshlang'ich ta'limda rivoyatlar asosida milliy qadriyatlarni singdirish
texnologgiyasi” mavzusida bajarilgan**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Bajaruvchi: A.Qodiriy nomli JDPI
Pedagogika fakulteti “Boshlang'ich ta'lismi
sport va tarbiyaviy ish” yo'nalishi IV kurs
talabasi **Hatamova Dilnoza**

Ilmiy rahbar: Isoqulov M.R.
BMI Pedagogika kafedrasi
yig'ilishining qarori bilan (Qaror №
himoyaga tavsiya etilgan. y)

Kafedra mudiri: dotsent **Usmonov N.**
(Ismi va sharifi) _____ (imzo)

Jizzax – 2013y.

MUNDARIJA

| | |
|---|----|
| KIRISH..... | 3 |
| I BOB <i>BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIGA MILLIY - MA'NAVIY QADRIYATLARNI SINGDIRISH</i> | 7 |
| 1.1. <i>Boshlang'ich sinf o'quvchilarini milliy qadriyatlar asosida tarbiyalashning ma'naviy jixatlari.</i> | 7 |
| 1.2. Yosh avlodni milliy qadriyatlar asosida tarbiyalashning nazariy jixatlari. | 18 |
| II BOB <i>BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIGA MILLIY QADRIYATLARNI SINGDIRISHDA RIVOYATLARDAN FOYDALANISH TIZIMI.</i> | 26 |
| 2.1. <i>Boshlang'ich sinf o'quvchilariga milliy qadriyatlarni o'rgatishning shakl va vositalari.</i> | 26 |
| 2.2. <i>Boshlang'ich sinf o'quvchilariga milliy qadriyatlarni singdirishda rivoyatlar dan foydalanish texnolgiyalari.</i> | 41 |
| Xulosa | 46 |
| Foydalanimagan adabiyotlar | 47 |

KIRISH

Bitiruv malakaviy ishining dolzarbli. Yurtimizda mustaqillik bayrog'i ko'tarilgan ilk kundan boshlab, xalqimiz ota-bobolarimiz tomonidan tarkib toptirilgan va butun dunyoga uning ziyosi tarqatilgan ma'naviyatni yanada boyitib, sayqallashtirib, jilo berib yosh avlodga yetkazishga harakat qila boshladi.

Bizga ma'lumki, mustaqillikning ilk kunlaridan boshlab yurtimizda isloxatlar amalga oshirila boshladi. Isloxatlardan ko'zlangan maqsad shundan iboratki, qaysi jabxada bo'lishidan qattiy nazar yurtimizda parloq kelajakni taminlashdir. Ta'lim - tarbiya tizimida olib borilayotgan tub islohatlar yoshlarning intelektual saloxiyatini oshirishga yo'naltirilgan. Yurtimizda olib borilayotgan isloxatlarning samarali tomonlarini ko'pgina rivojlangan mamlakatlar tomonidan tan olinmoqda .

Muhtaram Prezidentimiz «Men Abdulla Avloniyning «Tarbiya biz uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir», degan fikrini ko'p mushohada qilaman. Buyuk ma'rifatparvarning bu so'zlar asrimiz boshida millatimiz uchun qanchalar muhim va dolzarb bo'lgan bo'lsa, hozirgi kunda biz uchun ham shunchalik, balki undan ham ko'ra muhim va dolzarbdir», degan fikri ham yoshlar tarbiyasi Davlat siyosatiga aylanganligidan dalolatdir.

O'zbek xalqining mentalitetiga xos va mos, tarixan qaror topgan umuminsoniy va milliy qadriyatlar boshlang'ich sinf o'quvchilarini har tomonlama yetuk shaxs qilib tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etmog'ini inobatga olgan xolda biz o'z bitiruv malakaviy ishimizda bu tizimga aloxida yondoshishni maqsadga muoffiq deb bildik.

“Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch” asarida davlatimiz rahbari I.A.Karimov ma'naviyatga quyidagicha ta'rif beradi. «Ma'naviyat – insonni ruhan poklanish, qalban ulg'ayishiga chorlaydigan, odamning ichki dunyosi, irodasini baquvvat, iymon – e'tiqodini butun qiladigan, vijdonini o'yg'otadigan beqiyos kuch, uning barcha qarashlarining mezonidir».

Bizlarga ota - bobolarimiz shu narsani uqtirganki, ma'naviyat doimo ezgulikni himoya qiladi. Ezgulik esa har doim o'zida bunyodkor g'oyalarni

mujassamlashtiradi. Ota-bobolarimizdan biz yosh avlodga shunday bir ulkan ma'naviy boyliklar meros sifatida qoldirilganki, uni hyech qanday so'z bilan tariflab bo'lmaydi..

Boshlang'ich sinf o'quvchilariga milliy qadriyatlar to'g'risida tushuncha berishda biz albatta unga berilgan ta'riflarga to'xtalib o'tamiz.“Milliy qadriyatlar – ayrim xalq, millatlar va elatlarning tarixiy taraqqiyoti jarayonida yaratilgan barcha modiy va ma'naviy boyliklarning yig'indisidan iborat, u murakkab ijtimoiy-tarixiy xodisa bo'lib, millatning tili, madaniyati, tarixi, udumlari, jamiki moddiy va ma'naviy boyliklari, iqtisodiy va siyosiy va ma'naviy hayotini har tomonlama qamrab oladi”.

Ta'lim – tarbiya tizimimda boshlang'ich sinf o'quvchilariga rivoyatlar vositasida milliy qadriyatlarni singdirishni yo'lga qo'yish maqsadga muvofyaiq bo'ladi.

Bugungi kunda boshlang'ich sinf tizimida milliy qadriyatlarni o'quvchilar ongiga singdirishda ijtimoiy munosabatlarda yuzaga kelgan muammolarni yechishda, ma'naviy boyliklarni yosh avlodga yetkazishda, tabiat guzalligini avaylab asrashda undan keng foydalanish ko'zda tutiladi. Rivoyatlar orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarini ma'nan yetuk shaxs qilib tarbiyalashda ma'naviy tushunchalarni ularning ongiga singdirsh lozimki, uning ta'sirida har bir boshlang'ich sinf o'quvchisi jamiyatning faol a'zosiga aylansin.

Bugungi kunda hammaga ma'lumki butun dunyoda moliyaviy iqtisodiy inqiroz kechayotgan bir davrda uning oqibatlarini yoshlarga singdirish lozim. Unda biz I.A.Karimovning “Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, o'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralar” deb nomlangan asaridan to'liq foydalanim undan yoshlar ongiga mos qilib inqiroz sabablarini tushuntirib berishimiz mumkin.

Xalqimizning kelajagi, O'zbekistonning taraqqiyoti, istiqboli ko'p jihatdan intellektual salohiyati kishilarga, ya'ni barkamol avlodga, uning kasbiy saviyasi va o'z kasbiga tayyorgarlik darajasi, fidoyiligi, yosh avlodni o'qitish va tarbiyalash ishiga bo'lgan munosabatiga bog'liq.

Bular yoshlar tarbiyasida muhim o'rinni tutadi va shu tufayli ham tarbiya nazariyasi milliy mafkuramiz asosida tubdan isloh qilinmoqda. Ya'ni, milliy istiqlol mafkurasi, milliy va umuminsoniy qardiyatlar, boy madaniy merosimiz, urch – odat, an'analarimizga asoslangan tarbiya jarayoni vujudga keldi va kelmoqda.

O'zbekiston Respublikasining Prezidenti I.A.Karimovning tashabbusi bilan milliy tarbiya berishda biz boy o'tmishimizga tayanmoqdamiz. Har bir o'quvchi bizning ulug' o'tmishimizni, bizlar kimlarning ajdodlari ekanligini bilishi va u bilan faxrlanish lozim.

Tarbiya vositalari ichida xalq og'zaki ijodi, aynan uning rivoyatlari keng imkoniyatlarga ega, chunki ular aholi tomonidan barcha yoshlarda ishlatib kelinadi.

Rivoyatlar vositasida o'tmishdanoq axloq, mehnatsevarlik, vatanparvarlik, ezgulik, mardlik, insoniylik va shu kabi boshqa ijobiy xislatlar yoshlarga singdirib kelingan.

Rivoyatlarning tarbiyadagi imkoniyatlaridan yana biri shundaki, hikoyat va rivoyatlar uchun maxsus tayyorgarlik talab qilinmaydi, chunki ular xalq ichida og'izdan – og'izga o'tib yuradi va xalqimizning ma'naviy boyligi hisoblanadi.

Yuqoridagilarga asoslanib biz ilmiy – tadqiqot ishimizning mavzusi dolzarb deb atay olamiz.

Bitiruv malakaviy ishining maqsadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilariga rivoyatlar asosida milliy qadriyatlarni singdirish tizimini ishlab chiqish.

Bitiruv malakaviy ishining predmeti: boshlang'ich sinf o'quvchilariga milliy qadriyatlarni singdirishda rivoyatlardan foydalinish tizimi.

Bitiruv malakaviy ishining obyekti. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini rivoyatlar asosida milliy qadriyatlarni singdirishda ta'lif – tarbiya jarayoni.

Bitiruv malakaviy ishining vazifalari:

- boshlang'ich sinf o'quvchilariga rivoyatlarni o'rgatish tizimining hozirgi ahvolini o'rGANISH;
- rivoyatlar vositasida boshlang'ich sinf o'quvchilariga milliy qadriyatlarni singdirishning optimal variantlarini ishlab chiqish;

- boshlang'ich sinf o'quvchilariga milliy qadriyatlarni singdirishda rivoyatlar ishtirokini ta'minlovchi tavsiyalar ishlab chiqish.

Bitiruv malakavi ishining metodologik asoslari: Milliy istiqlol mafkurasi, milliy va umuminsoniy qadriyatlar, boy madaniy merosimiz «Ming bir rivoyat», «Donishmandlar bisotidan» turkumidagi yozma manbalar, prezidentimiz I.A.Karimovning asarlari.

Bitiruv malakavi ishining metodlari: Suhbat, kuzatish, anketa, statistik ma'lumotlarni tahlil qilish.

Bitiruv malakaviy ishining tuzulishi: kirish, ikki bob, xulosa va adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

**I BOB. BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIGA MILLIY –
MA'NAVIY QADRIYATLARNI SINGDIRISH**

1.1. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini milliy qadriyatlar ososida tarbiyalashning ma'naviy jixatlari

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini komil inson qilib tarbiyalash jarayonlarida, biz ota-bobolarimiz tomonidan shakllantirilgan tarbiya tizimiga asoslanamiz. Chunki ota-bobolarimiz barkamol avlodni tarbiyalash g'oyasida ham milliy, ham umuminsoniy qadriyatlarga tayanganligi bois ham butun dunyoda sharq falsafasi va sharq tarbiyasi muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli ham bugungi kunda boshlang'ich sinf o'quvchilarga milliy qadriyatlarni singdirish davr talabi hisoblanadi. Bizning ota-bobolarimiz tomonidan bebahohi tarbiya tizimi ishlab chiqilgan. Xalqimiz doimo bola tarbiyasi ona qornida paytidayoq boshlanmog'i lozim deb ta'kidlab kelgan.

Tarbiya – ma'naviy manbalar va hozirgi zamon talablari va ehtiyojlarini nazarda tutgan holda o'qituvchining o'quvchi bilan aniq bir maqsadga qaratilgan o'zaro ommaviy va nazariy muloqotidir.

Insoniyat o'z taraqqiyoti davrida hamma vaqt milliy qadriyatlarga tayanib kelgan. Shuning uchun xalq orasida ota-bobolarimizning buyuk ma'naviyati o'lmas bo'lib kelmoqda. Shunday ekan, yosh avlodni komil inson darajasida tarbiyalash ularni hozirgi kunning eng ilg'or, zamonaviy fan – texnika bo'yicha bilimlar bilan qurollantirish bugungi kunning dolzarb vazifasi hisoblanadi. Bunda tarbiyaning vazifalari ham o'z aksini topadi.

Tarbiya vazifasi – ma'naviy manbalar va hozirgi zamon talablari va ehtiyojlarini nazarda tutilgan holda o'qituvchining o'quvchi bilan aniq bir maqsadga qaratilgan tarbiyaning samaradorligi tarbiyaning qanday metodidan foydalanishga bog'liq.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ma'naviy dunyoqarashini yuksaltirishda tarbiyaviy jarayonlar muxim axamiyat kasb etadi.

Tarbiya jarayoni – tarbiya jarayonining mohiyati va jamiyat taraqqiyotidagi roli nihoyatda beqiyosdir. Insonni tarbiyalash, uni bilim olishga, mehnat qilishga undash va bu xatti-harakatini asta-sekin ko'nikmaga aylantirib borish lozim.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ma'naviy kamolotini yuksaltirishda rivoyatlardan tarbiyaning bir maqsadi sifatmda foydalaniladi. Shuning uchun ham tarbiyaning maqsadiga to'xtalib o'tishni joiz deb bildik.

Tarbiya maqsadi – talaba-yoshlarda milliy g'oya va milliy mafkurani shakllantirishda ilmiy pedagogik tadqiqot metodlari qo'llaniladi.

Rivoyatlar asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarini milliy – ma'naviy qadriyatlar bilan tanishtirish va ularning mazmunini o'quvchilar ongiga singdirishda tarbiyaning aloxida , diqqatga sazovor usullaridan foydalanish yaxshi samaralar beradi.

Tarbiya metodlari – metod lotincha metodoc – yo'l so'zidan olingan. Metod tadqiqot yo'li, nazariya, ta'limot deb tarjima qilinadi. Ilmiy tushuncha sifatida «metod» so'zi keng ma'noda muayyan maqsadga erishish yo'li tushuniladi.

Tarbiya metodlarini insonlar o'rtaсидаги doimiy munosabat, ya'ni, **aloqalar tizimi** deb hisoblar ekanmiz, bu jarayon ixtiyoriy ta'lim muassasalaridagi rahbarlar bilan xodimlar, o'qituvchi va o'quvchilar o'rtaсидаги munosabatlarni qamrab oladi Bunday dolzarb muammoni hal qilishni milliy ma'naviy qadriyatlarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Bu borada Sharqni nafosat va dinning beshigi deb bejiz aytishmagan. Zero, Sharqning buyuk allomalari, mutafakkirlari o'zlarining ilmiy, adabiy - badiiy asarlarida milliy qadriyatlarning ahamiyati, ularning muqaddasligini ulug'lab bizlarga meros qilib qoldirganlar. Bularga dalil sifatida Zardushtiyarning «Avesto» kitobini, muqaddas kitoblarimiz (Quroni Karim, Hadis Sharif)ni va Al-Xorazmiy, Al-Farg'oniy, Al-Buxoriy, , Abu Nasr Farobi, Al-Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Yusuf Xos Hojib, At-Termizi, Ahmad Yassaviy, G'ijduvoniy, Sulaymon Boqirg'oniy, Najmiddin Kubro, Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Husayn Voiz Koshify, Bobur, Nodira, Munis Ogahiy va boshqa ko'plab allomalar asarlarini hamda ulardag'i komil inson tarbiyasiga katta e'tibor qaratganliklarini keltirib o'tishimiz mumkin.

Komil inson tarbiyasida Imon Buxoriy, At - Termiziy, Beruniy, Abu Nasr Farobiy, Amir Temur, Mirzo Ulug’bek, A. Navoiylarning hayoti va At-Termiziyning «Al-Jome’» (Ishonchli to’plam), «Sunan at-Termiziy» (Termiziy sunnatlari), Beruniyning «O’tmish ajdodlardan qolgan yodgorliklar», «Hindiston», «Minerologiya», «Xorazmnинг ajoyib kishilari», A. Navoiyning «Hamsa»si, g’azallari, A. Temir o’gitlari, Ulug’bekning «Zij»i, «To’rt ulus tarixi» kabi asarlarda boy-ma’naviy merosimiz bilan dunyo ilm ahlini ham lol qoldirgan va ilg’or ilmiy asarlar orasida yuqori o’rin egallagan.

Bola tarbiyasida aql-zakovat, zukkolik, bilimdonlik yuqori pog’onani egallashi zarur. Shuning uchun ham qomusiy va diniy ilm sohiblari Abu Ali Ibn Sino, Abu Nasr Farobiy, Beruniy, Yusuf Xos Hojib, Mahmud Qoshg’ariy, Imom al-Buxoriy, At-Termiziy, az-Zamaxshariy, al-Marg’inoniy, al-Motrudiy, Najmiddin Kubro, Ahmad Yassaviy, Naqshband va boshqalarlarning ilmiy meroslari yoshlarning intellektual salohiyatini rivojlantirishda muhim omildir.

Milliy faxrimizga aylangan shoiru - fuzalolar Abu Nasr Forobiy, A.Jomiy, A. Navoiy, Bobur, Nodira, Uvaysiy va boshqalar o’z asarlarida komil inson tarbiyasi muammolariga katta e’tibor bergen.

Milliy tarbiyamizning yana bir istiqbolli qirrasi kattalar o’gitiga qulq solishdir. Bularni e’tiborga olgan holda biz o’z izlanishlarimizda milliy qadriyatlarning ta’lim - tarbiyada tutgan o’rnining alohida ko’rsatilishi va uning bugungi kundagi ahamiyatini yoritishni maqsad qilib oldik.

Ta’lim tarbiya jarayonida kishilarni ezgulik sari yetaklash haqidagi ta’limotlar muqaddas kitoblarimiz («Qur’oni Karim», «Hadisi sharif», «Avesto» va shu kabilar)da doimo ulug’lanib kelingan. Bu borada Vatanimizda o’tmishda bu istiqbolli orzu-istiklar doimiy vazifaga aylangan va u bilan jamiyatimizning har qanday a’zosi shug’ullanishi ham farz, ham qarz bo’lgan. Ayniqsa, tarbiya masalasi bilan nafaqat oila boshlig’i yoki ta’lim muassasalari mutasaddilari, balki yurtimizning donishmandlari, ziyorilar (olimlar, shoirlar, yozuvchilar, tarixchilar, hadis ilmi sohiblari va h.k.), adolatparvar hukmdorlarining ham bosh maqsadlari bo’lgan. Jumladan, ular komil inson haqidagi yuksak g’oyalar Abu Nasr Farobiyning Fozillar jamiyati («Fozil insonlar shahri»); At-Termiziy, Ahmad

Yassaviy, Imom Buxoriy, Marg’inoniy, Motrudiy, Az-Zamaxshariy, Sufiy Olliyor, Xoja Ahrori Valiy, G’ijduvoniy, Najmuddin Kubro va shu kabilarning islom falsafasidan oziqlangan «Ilmi Hadis» yo’nalishidagi ta’limotlari; Xoja Bahouddin Naqshbandiyning «Diling Ollohdha, qo’ling mehnatda bo’lsin» (Dilba Yoru, dastba kor) yo’nalishidagi ta’limotlari; Muhammad Muso al- Xorazmiy va Abu Rayhon Beruniylarning dunyoviy kashfiyotlari hamda ijtimoiy ahloqiy qarashlari; Ibn Sino tibbiyoti va uning komil insonni jismonan hamda ma’nan sog’lom qilib tarbiyalash g’oyasi; Alisher Navoiyning adolatli jamiyat va ma’rifatga chaqiruvchi ta’limotlari; Amir Temur davlatchiligi va uning adolatli ijtimoiy-tashkilotchilik ishlari; Mirzo Ulug’bekning koinot va ta’limni ommaviy ravishda olib borish haqidagi ta’limoti; Mirzo Boburning millatlararo do’stlikni va adolatni qadrlash hamda ta’limni (shu jumladan, o’zbek alifbosini ya’ni «Xatti Boburiy»ni) isloh qilish sohasidagi ishlari; Ma’mun akademiyasi «Donishmandlik uyi» («Bayt ul-hikma»)lardagi ma’naviy-axloqiy ta’limotlarda teran ifoda etilgan.

Demak, bizning ajdodu - avlodlarimiz ham jismonan, ham ma’nan komillikka orzu-havas qilganlar. Bu esa insonni kamolot sari yetaklashi aniq, chunki mustaqil yurtimiz azal-azaldan ilmu ma’rifat, ziyo va madaniyat maskani sifatida jahonga mashhur bo’lib kelgan.

Umuman olganda barkamol avlodni tarbiyalash, o’zining ma’naviy, ma’rifiy, tashkiliy-uslubiy, ijtimoiy-iqtisodiy jihatlari bilan murakkab va mas’uliyatli dinamik jarayondir. Biz bu jarayonni amalga oshirish ketma-ketligini quyidagicha ifodalashni lozim topdik: taraqqiyotning «O’zbek modeli» (O’zbekiston ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining beshta tamoyili, ya’ni jamiyatni isloh qilishning beshta tamoyili); barkamol avlod orzusi va unga erishmoq yo’li; orzuga erishishda barkamol avlod vazifalari va burchlari; orzuga erishishda uzlucksiz ta’lim tizimi o’rni va roli; orzvni ro’yobga chiqarishda zaruriy uzlucksiz ta’lim tarkibi; kadrlar tayyorlash milliy dasturini amalga oshirish bosqichlari; KTMDning «Milliy modeli»; KTMDni joriy etishning ilmi-uslubiy ta’minoti; barkamol avlod tarbiyasi jarayonining tashkiliy-uslubiy va ilmiy-pedagogik ta’minoti; tarbiyada maqsadga erishganlikni baholash mezonlari; barkamol avlodning tarbiyalanganligi haqidagi xulosalar va keyingi faoliyatga tavsiyalar.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari tarbiyasining bu qayd etilgan ketma-ketligiga, O'zbekiston ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining beshta tamoyili asos qilib olingan bo'lib, barkamol avlodning amaliy faoliyatgacha bo'lган jarayonini o'z ichiga olgan va o'z xususiyatiga ko'ra barkamol avlod tarbiyasiga kompleks yondashuvi amalga oshirildi.

Istiqlol sharofati bilan xalqimiz hozirgi kunda o'zbeklar o'tmishi tarixi, uning o'lmas merosi, buyuk olimu fozillari, davlat arboblari-yu, din peshvolari, alloma-yu donishmand mutafakkirlari bilan g'ururlanish va faxrlanishdek buyuk baxtga muyassar bo'ldi. Shuningdek, asori-atiqa yodgorliklarimizni asrash, milliy qadriyatlarimizni tiklash, qadimiy boy tariximizni chuqur o'rganish, ilm-fan arboblarining boy ilmiy merosini qanday bo'lsa shundayligicha o'rganish, hurfikrlilikka erishish, Sharq mutafakkirlari ijodini tahlil qilib, uni o'rganishlarga keng imkoniyatlar yaratildi. Shu tufayli ham bugungi yoshlарimiz ongida O'zbekiston, deb atalmish Ona diyorimizni nafaqat Sharqda, balki butun dunyo sivilizasiyasi beshiklaridan biri bo'lганligini tarix bir necha bor isbotlaganligi haqidagi ma'lumotlarni singdirish imkoniyati tug'ilmoqda, o'tmishimizni chuqur o'rganish kelajakka aniq yo'l topish imkonini beradi. Bu borada Abdulla Qodiriylar ham o'zining mashhur «O'tgan kunlar» romanidan moziyga qaytib ish ko'rish hayrli deydilar. Shunga ko'ra mavzuni moziydan, yaqin o'tgan kунлардан, tariximizning amirlik, qora kунлари bo'lган keyingi «Xon zamonлари» dan belgilадим, deb bejiz aytмаган. Qolaversa, qaysi xalqning madaniy tarixi qanchalik qadimiy bo'lsa, o'sha xalqning axloqiy go'zalligi, urf – odatlarining rang – barangligi beqiyos, ta'lim – tarbiya ildizлари ham shunchalik chuqur bo'ladi. Har qanday madaniyat, axloq, urf – odat, an'ana va ma'naviy tarbiya insoniy faoliyatning kechinmalari, sinovлари, boy tajribalari asosida yuzaga keladi. Maqbullari avloddan – avlodga o'tadi va kelajakdagi tarbiyaviy ishlarimizdagи yo'l – yo'riqlarni belgilab olishda mustahkam ma'naviy asos bo'ladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini yetuk shaxs qilib tarbiyalashda o'zbek xalq og'zaki ijdi janrlaridan biri bo'lган rivoyatlar muhim ahamiyat kasb etadi. Yoshlarga milliy qadriyatлarni singdirishda o'tmishimizdagи boy ilmiy

va ma'naviy merosimiz, bugungi kundagi barkamol avlod tarbiyasi to'g'risidagi Davlatimiz rahbariyatining e'tibori yoshlarimiz tarbiyasidagi asosiy omillaridandir. Ayniqsa, yoshlarimizni Vatan qayg'usi va xalq farovonligi ruhida tarbiyalashda milliy tarbiyamiz tarixiy assoslari (qomusiy va hadischi olimlarimiz, yozuvchilarimiz, xalq qahromonlarimiz, adolatli davlat boshliqlarimiz va arboblarimiz) muhim mustahkam ma'naviy asosdir.

Bugungi kunda boshlang'ich sinf o'quvchilarini tarbiyalash jarayonida har bir pedagog yoshlar tarbiyasining naqadar murakkabligi va mas'uliyatlari ekanligini his etmoqda. Shuning uchun ularni tarbiyalashda milliy qadriyatlar va boy ma'naviy meroslarimizdan foydalanish zaruriyatini davr taqozo etmoqda.

Bugungi kun pedagogikasida ota-onalar o'z farzandlarini quyidagi yo'llar bilan tarbiyalashga harakat qilayotganliklari aniqlangan:

- ibrat bo'la oladigan shaxslar namunasida tarbiyalash uchun ularga biriktirib qo'yish;
- donolar fikrlari, o'gitlari, asarlarini o'rganishga da'vat etib, kundalik hayotda ularni qo'llashga o'rgatish orqali;
- jamiyat hayotida ro'y berayotgan voqyealar, insonlar xatti-harakatlarini kuzatib, tegishli xulosalar chiqarish orqali;
- insonning o'zini tutishini o'rganish, uni qiyoslash, taqqoslash va xulosa chiqarishga o'rgatish orqali.

Ushbu tarbiyalash ta'sirida bo'lган yoshlar jamiyat hurmatiga sazovor bo'lishi, o'z vataniga foya keltirishi mumkin. Bugungi kun talabi ham inson bolasi eng qudratli kuchga - o'z tafakkuriga ega bo'lishi lozimligi ko'rsatmoqda.

Yoshlar ongi, fikri, tafakkuri bozor iqtisodiyotining o'tish davrida bo'g'ilib qolmasligini inobatga olib, bu borada I.A.Karimov mustaqilligimizning ilk yillarida, ya'ni 1992 yil 8-dekabr kuni o'n ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining o'n birinchi sessiyasida jumladan shunday fikrlarni bildirgan edi: «Bozor munosabatiga

o'tish davrida ijtimoiy soha: sog'liqni saqlash, ta'lism, madaniyat va san'at, shuningdek, ilm-fan ayniqsa mushkul ahvolda qolmoqda. Biz uchun tarixiy, madaniy, umuman ma'naviy qadriyatlar, xalqimizning ruhini baland saqlash, yosh avlodni tarbiyalash eng asosiy vazifa bo'lib qolishi kerak va bu sohalar hisobidan mablag'larni tejay olmaymiz».

Ijtimoiy masalalar xalqimiz hayotida muhim rol o'ynaganligi sababli ham u Konstitutisiyamizning 39-moddasida quyidagicha o'z aksini topgan: «Har kim qariganda, mehnat layoqatini yo'qtganda, shuningdek boquvchisidan mahrum bo'lganda va qonunda nazarda tutilgan boshqa hollarda ijtimoiy ta'minot olish huquqiga ega».

Pensiyalar, nafaqalar, ijtimoiy yordamning boshqa turlarining miqdori rasman belgilab qo'yilgan tirikchilik uchun zarur eng kam miqdordan oz bo'lishi mumkin emas».

Bu hozirgi kun Qonuni. O'tmishda bunday ta'minot bo'lganmi? Bunday ijtimoiy masalalarni talabalarga tushuntirish muhim masala hisoblanadi.

Islom olamining qomusi bo'lgan «Hadis» larda ham aholining himoyaga muhtoj qatlamlariga ijtimoiy yordam ko'rsatish keng targ'ibot qilingan. Shu bilan kishilarning dinni, iymonini poklikka, g'ururini yuksaklikka undagan.

Milliy qadriyatlardan, Muhammad alayhissalomning hadislaridan misollar keltirish mumkin. Hadisi sharifda «Men yetimning kafilligini olgan odam bilan jannatga birga boraman»; «Qarovsiz qolgan mo'minlarga xolisona kechayu - kunduz moddiy yordam ko'rsatib yuruvchi odamning gunohlarini tangrim kechirib yuboradi»- deyilgan.

Zardushtiylarning muqaddas kitobi «Avesto» butun dunyo ilmli kishilarini azaldan o'ziga chorlab turgan. Bundagi ta'limotda, yurtga muhabbat, o'z qadrini bilish, qariyalarning purhikmat o'gitlaridan oqilona foydalanish, yurtni qo'riqlaydigan yoshlarga g'amxo'rlik, kuchdan qolganlar hamda betob, muhtojlarga ko'mak berish masalalari keng yoritilgan.

Amir Temur o'gitlarida esa bunday deyilgan: «Agar kasbu-hunar va ma'rifat ahllaridan bo'lsa, bundaylarga sultanat korxonalaridan yumush berilsin, bulardan boshqa bilagida kuchi bor faqir miskinlar esa o'z ahvoli va kasbu – koriga qarab ish tutsinlar.... Dehqonlar va raiyatdan qaysi birining dehqonchilik qilishiga qurbi yetmay qolgan bo'lsa, unga ekin-tikin uchun zarur urug' va asbob tayyorlab berilsin. Agar fuqarodan birining uy-imorati buzilib, tuzatishga qurbi yetmasa, unga yordam berilsin».

Ijtimoiy muhofazalash qoidalariga ota-bobolarimiz juda katta e'tibor berib yashaganlar. Mahallalarda biron bir nochor oila bo'lsa, hashar yo'li bilan yumushlarini bitkazish, ro'za kunlari «pitri» berib, bir oz bo'lsada moddiy yordam ko'rsatganlar.

Bu borada ulug' shoir va mutafakkir Alisher Navoiyning quyidagi o'gitlari fikrlarimizga dalil bo'la oladi: «Qariyalar muhtojlikka tushib qolsa, kasb-hunar qila olmasa ularga rahm-shafqat qilishga shoshil va qo'lingdan kelgancha ehson qil. Lekin kambag'al yigit ketmon chopcha olsa, o'tin tashimoqni uddalasa, unga ehson qilmoq - isrof qilmoqdir».

Alisher Navoiy bu o'giti orqali qariyalarga yordam berish savob ishligini, lekin bilagida kuchi bor yigitning, o'z oilasini tilanchilik bilan boqishi isnod, uyat ekanligini va kishi halol mehnatda toblanishi lozimligini ko'rsatadi.

Xalqimiz yoshlar tarbiyasiga katta e'tibor bergen, ularni o'zlarining duo-yu, olqishlari orqali mehr-oqibatli bo'lishga undagan. «Oltin olma duo ol, duo oltin emasmi», «Boshing tosh, ostonang oltin bo'lsin», «Bizni hurmat qilgan bo'lsang, xudo seni yorlaqasin», «Boshing to'ydan chiqmasin», «Oy borib, omon qayt» kabi mana shunday o'gitu- duolar insonlarni bir-biriga mehrli, oqibatli bo'lishlariga zamin yaratib bergenlar.

Milliy qadriyatlarni o'rganish chog'ida «tabiat va jamiyat» mavzusiga ham ko'proq urg'u berishga to'g'ri keladi, chunki ota - bobolarimiz bizlarga beqiyos tabiatni o'zligicha tuhfa etganlar.

Ular tabiatning har bir giyohini behudaga ishlatmaganlar. Agar ishlatish zaruriyati to'g'ilsa eng avvalo ularning o'sishiga, ko'payishiga shart-sharoit

yaratib, so'ngra ulardan foydalanganlar. Bu borada Sohibqiron Amir Temur ham o'z «Tuzuklar»ida «Bitta ko'chat kestirsam o'nta ko'chat o'tqazdim», -deb ta'kidlaydilar.

Hozirgi kun muammolaridan Orol dengizining qurib borishi, Haydarko'lning kengayib ketishi nimadan dalolat beradi? Ana uning yechimi mustabid tuzum davrida milliy qadriyatlarga e'tibor berilmaganligigadir. Bu kabi muammolarni to'g'ri tahlil va talqin qilib borish, darslarda foydalanish yoshlar ongiga milliy ong, milliy g'ururni singdirib borishning yo'llaridan biridir.

Tabiat va jamiyat mavzusi yuzasidan xulosa qilishda boshlang'ich sinf o'quvchilari o'zlari quyidagi fikrga kelishlari nazarda tutiladi: go'zal tabiat payhon bo'lmasligi uchun ota-bobolarimizdek biz ulardan oqilona foydalanishimiz kerak.

Buni amalga oshirishda boshlang'ich ta'lim darsliklaridagi har bir mavzuni unga mos rivoyatlar bilan bog'lash zarurati yuzaga keladi. Bunday muammolar o'quvchilar o'rtasida o'rganilib, tegishli xulosalar chiqariladi. Bizni qurshab turgan olamni asrab – avaylash, boy milliy ma'naviy merosimizni avlodlarga yetkazish uchun ota - bobolarimiz e'tiqodini bilish, tajribasini qunt bilan egallah kerak bo'ladi. Bu esa talabalardan chuqur bilim va mahoratni talab etadi. Shuning uchun ham biz ta'lim-tarbiya jarayonlarining ajralmasligiga tayanib, ulug' allomalarimiz hayoti va faoliyatini, milliy qadriyatlarning bebaho qirralari sifatida o'rganish orqali o'quvchilarni yuksak madaniyatli, o'z Vataniga, kasbiga sadoqatli inson qilib tarbiyalash zaruriyati tug'iladi. Bunga bugungi kunda ijtimoiy asoslарimiz to'laligicha yetadi va bu yo'nalishdagi ishlarni amalga oshirishiga Respublikamiz hukumati tomonidan keng imkoniyatlar yaratilgan. Jumladan, o'tmishimiz qanday bo'lsa, o'shanday o'rganish imkoniyati yaratildi, oldin taqiqlangan yozma manbalardan bugun bemalol foydalanish imkoniyati bor, ommaviy, diniy va umumxalq marosimlarini o'tkazishga va ulardan yoshlar tarbiyasida foydalanishga imkoniyat yaratildi. Shu sababli ham mazkur tadqiqot ishimizning keyingi qismlarida ular haqida to'xtalamiz.

Milliy qadriyatlarni o'rganishning bugungi kundagi ijtimoiy asoslari:

- Respublika Ma'naviyat – Marifat markazi;
- Respublika Milliy istiqlol g'oyasini targ'ibot qilish markazi;
- Faylasuflar jamiyat;

- «Iste'dod» jamg'armasi;
- «Amir Temur» jamg'armasi;
- «Ulug'bek» jamg'armasi;
- «Navro'z» jamg'armasi;
- «Oltin meros» fondi va shu kabilarning hammasi bugungi kunda milliy qadriyatlarni o'rganishning ijtimoiy asoslarini belgilaydi.

Ma'lumki, XX asrning oxirigi 10 yilligi Vatanimizga nihoyatda katta ma'naviy - ma'rifiy, moddiy, iqtisodiy va ijtimoiy boyliklarni berdi. Respublikamizda iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy soha bo'yicha zamon talablari asosida tub islohatlar qilish imkoniyati yaratildi. I. A. Karimov O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi IX sessiyasida barkamol avlod tarbiyasiga alohida to'xtalib «Bolalarimizga qachondan boshlab , qanday usulda va uslubda milliy qadriyatlar, urf-odatlarimizni o'rgatishimiz, chuqur anglatishimiz kerak?» - degan edi. Bunday dolzarb masala yechimini tezda hal qilishni u o'z oldiga maqsad qilib xalq ta'limiga katta e'tibor berib, islohatlar yurita boshladi.

Xuddi shuningdek, ushbu islohatlar mamlakatning kelajagini yaratuvchisi bo'lgan yosh avlodni shakllantirish bo'yicha mas'ul tizim – xalq ta'limida ham islohatlar o'tkazilib, davlat miqiyosida maxsus dasturiy hujjatlar qabul qilindi. Jumladan «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun, «Kadrlar tayyorlash milliy dastur» (DTS) larining har bir ta'lim yo'nalishi bo'yicha Davlat ta'lim standartlari va sohaga oid boshqa ko'plab qabul qilinayotgan me'yoriy hujjatlar ta'lim tizimini takomillashtirishga davlat siyosati darajasida e'tibor qaratilayot-ganligining yorqin dalilidir. Ayniqsa, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da barkamol avlod tarbiyasiga berilgan e'tibor mustaqil respublikamiz taraqqiyotiga munosib hissa qo'shadigan yosh avlodni tarbiyalashni bosh muammo qilib qo'ydi. Shuning bilan birga barkamol avlodni tarbiyalash birdaniga kun tartibiga qo'yilgan bosh masala emas, balki u asrlar davomida ajdodlarimiz orzusi bo'lib kelgan. Bunday orzudagi insonlar azaliy ma'rifatga daxldor bo'lgan yurtlarning donishmandlari - eng mo'tabar ziyorilar, hukmdorlar hisoblanganlar. Ularning orasida O'zbekiston deb atalmish Ona zaminimizda yashagan ma'rifatparvar buyuk ajdodlarimizning salmoqli o'rni bor. Shu sababli ham barkamol avlodni milliy qadriyatlar asosida tarbiyalash masalasi bo'yicha tarixdan juda ko'p dalillar keltirish mumkin.

Jumladan, Ibn Sino tibbiyoti, Beruniy qomusiy ta'limoti, al-Xorazmiyning aniq fanlar sohasidagi kashfiyotlari, Al-Farg'oniyning butun dunyoda ma'lum va mashhurligi, Mirzo Ulug'bekning koinot ilmi, Alisher Navoiyning adolatparvarlik haqidagi ta'limotlari, ya'ni bunyodkorlik g'oyalarining tarannum etilishi yoki Imom al- Buxoriy, at-Termiziylar, Ahmad Yassaviy, Az-Zamaxshariy, Abu Mansur Motrudiy, Naqshbandiyarlarning hadis ilmlari yoki Amir Temur davlatchiligi, Boburning ma'rifat va ta'limdagi islohotlari («Xatti Boburiy») va Ma'mun akademiyasi allomalarining ta'limotlarida kelajak avlodni boy ma'naviy, savodli - ma'rifatli qilib tarbiyalash bosh masala qilib qo'yilgan.

1.2. Yosh avlodni milliy qadriyatlar asosida tarbiyalashni nazariy asoslari.

Bugungi kunda boshlang'ich ta'linda milliy qadriyatlarni o'rganish tizimi alohida qayd etilib borilmoqda. Chunki buyuk bobolarimiz xalqimiz tomonidan asrlar davomida shakllantirilgan tarbiya tizimi bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotgan emas.

Bunday ulug' bobolarning ta'lim – tarbiyaga qo'shgan hissalari to'g'risida p.f.d. prof. O.Musurmonova shunday fikr bildiradi: «Ular xalqimizni milliy g'urur asosida tarbiya qilib, ongi va qalbini soxta g'oya, qarashlardan himoya qilishgan».

Xalqimiz tafakkuridagi ma'rifat tushunchasi, ilm va bilimga intilish xislati bir necha ming yillar davomida shakllangan va sayqal topgan. Shuning uchun boy milliy qadriyatlarni unutishga haqqimiz yo'q. Vatanga, boy o'tmishimizga sodiq va munosib vorislar bo'lishimiz kerak. Barkamol shaxsga qo'yiladigan talablarni har bir o'quvchi shaxsida tarbiyalash yo'llarini tadqiq qilishimiz shart.

Demak, barkamol avlod tarbiyasi bugungi kunda har qachongidan ham dolzarbdir. Shu bois mazkur ilmiy - tadqiqot ishimizda boy milliy merosimizni o'rganishda axborot texnologiyalari imkoniyatlaridan foydalanish maqsadida informasion kommunikativ tizim ishlab chiqish va joriy ko'zdautilishi bejiz emas.

Asriy orzu - istaklari ro'yobga chiqqan bugungi kunda ota-bobolar, ajdodlar shon-shuhratidan faxrlanish, mag'rurlanish, ulardan bizlarga meros bo'lib qolgan ma'naviy boyliklarini ilmiy nuqtai nazardan tahlil qilish imkoniyati yaratildi. Ota - bobolarimizning boy milliy merosini o'rganish jarayonida yoshlarimizda, ota-bobolarimiz hayoti - faoliyatidan faxrlanish tuyg'ularini paydo qilish o'tmishimizga bo'lgan hurmatni oshiradi va o'tmishdagi ota-boblarimiz ruhlari oldidagi qarzdorlik hislarini paydo qiladi.

Bunday tuyg'ularni shakllantirish uchun eng avvalo yoshlar ongiga milliy qadriyat to'g'risidagi tushunchalarni singdirib borish zarur bo'ladi.

Taniqli faylasuf olim J.Tulenov fikricha «Qadriyatlar deyilganda inson va insoniyat uchun ahamiyatli bo'lgan, millat, elat va ijtimoiy guruhlarning manfaatlari va maqsadlariga xizmat qiladigan tabiat va jamiyat hodisalari majmui tushunilmog'i lozim».

Qadriyatlar amal qilish doirasiga ko'ra milliy, mintaqaviy va umuminsoniy turlarga bo'linadi.

Milliy qadriyatlar murakkab ijtimoiy - ruhiy hodisa bo'lib, u millatning tili, madaniyati, tarixi, urf-odatlari, an'analarini, jamiki moddiy va ma'naviy boyliklarini, iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy hayotining barcha tomonlarini qamrab oladi.

Bu sohada olib borilgan ko'p yillik ilmiy izlanishlarimiz milliy qadriyatlar o'zbek xalqining ma'naviy sifatlari, moddiy boyliklarini hamda ijtimoiy-siyosiy an'analarini qamrab oladi deb xulosa chiqarishimizga imkon berdi.

Milliy qadriyatlar – muayyan bir millat, elat va xalq hayoti, turmush tarzi, ularning o'tmishi, kelajagi va yashayotgan ijtimoiy muhiti bilan bog'liqdir deb falsafa bo'yicha qomusiy lug'atda ta'rif berib o'tilgan.

Bu chiqarilgan xulosa milliy qadriyatlarni o'rganishda talabalarda milliy g'oya, milliy ong, milliy g'urur tushunchalari ketma-ketligini shakllantirish lozimligini ko'rsatdi. Chunki milliy g'ururi bo'limgan inson hyech qachon Vatan boyliklari qadriga yetmaydi, uni asrashni xayoliga ham keltirmaydi, ya'ni vatanparvar, fidoyi inson bo'lib yetisha olmaydi.

Kishida milliy ong bo'lmasa, u hyech qachon o'zligini namoyon eta olmaydi. U hyech qachon millat uchun qayg'urib yashamaydi, millat taqdirini o'ylamaydi. Bu borada I.A.Karimov shunday degan edi. «...Ta'lim – tarbiya – ong mahsuli, lekin ayni vaqtda ong darajasi va uning rivojini ham belgilaydigan omildir. Binobarin, ta'lim-tarbiya tizimini o'zgartirmasdan turib ongni o'zgartirib bo'lmaydi. Ongni, tafakkurni o'zgartirmasdan turib esa biz ko'zlangan oliy maqsad – ozod va obod jamiyatni barpo etib bo'lmaydi».

Shuning uchun ham biz o'z tadqiqtimizda, yuqorida qayd etilgan ketma-ketlikni ta'minlovchi bosqichlarda tushunchalarni shakllantirish yo'llarini izladik.

O'zbekiston Respublikasining mustaqillikka erishishi bilan jamiyatimiz hayotida erishilgan ko'plab ijobiy o'zgarishlar qatorida xalqimizning o'zligini anglay boshlaganligi, milliy an'analarning tiklanishi eng muhim ahamiyat kasb etadi. Kun sayin yoshlarimizda milliy ong, milliy g'urur kabi tuyg'ular shakllanib, rivojlanib bormoqda. Biroq, milliy ong, milliy g'ururning kundan- kunga o'sib, yuksalib borishi, bu sohadagi muammolar to'laligicha hal etildi, degani emas. Hali o'qituvchilar, mutaxassis – olimlar, ota - onalar oldida ko'plab hal qilinishi lozim bo'lgun ma'suliyatli vazifalar turibdi.

Tarbiya tamoyillari: tarbiyaning maqsadga yo'naltirilganligi va g'oyaviyliji; tarbiyada demokratik va insonparvarlik g'oyalarining ustunligi; tarbiyada milliy, umumbashariy qadriyatlarning ustunligi; tarbiyada izchillik va tizimlilik; tarbiyani ijtimoiy hayot bilan uyg'un holda olib borish; tarbiyani mehnat faoliyati bilan bog'lash; tarbiyalanuvchi shaxsini hurmat qilish; tarbiyada tarbiyalanuvchining yosh va alohida hususiyatlarini hisobga olish; jamoa va jamoa yordamida tarbiyalash; tarbiyada tarbiyalanuvchi xulqidagi ijobiy sifatlarga tayanib salbiy tomonlarni yo'qotish.

Har qanday mafkura qanchalik jozibali bo'lmasin, agar u xalqning ruhiyati va tajribasiga mos kelmasa, unga tayanmasa, uning qiziqishlarini o'zida aks ettirmasa, u kishilar ongida uzoq vaqt saqlanib qolmaydi. O'z - o'zidan ma'lumki xalq hayoti bilan hamnafas bo'limgan g'oyalar amalga oshmaydilar.

Milliy mafkuraning kuchi shundaki, u «Jamiyatdagi barcha millat va elatlarning boshini qovushtirib, ularni, bitta asosiy maqsadga undaydigan g'oyalar yig'indisidan, majmuasidan tashkil topadi».

Milliy mafkura asosini o'sha millatning tarixi tashkil qiladi.

O'zbek xalqining ajdodlari hisoblanmish sak qabilalari (miloddan avvalgi VI-V asrlar), boshqa qabilalardan o'zi yashab turgan yerlarini sevishi, ayollarini xo'rmasligi, qariyalarini hurmat bilan e'zozlashi, ulardan doimo maslahatlar

olishi, yoshlarini esa mardlikka, jasurlikka o'rgatishi, har bir yigit -qizining sog'lom bo'lib o'sishi uchun sharoit yaratishi bilan ajralib turgan.

Hozirgi kunda milliy mafkura, hukumatimiz va shaxsan Prezidentimiz I.A.Karimov tomonidan qonun asosida himoyalanib, mukammallahib bormoqda. Buning isbotini I.A.Karimovning «Mustaqilligimizning dastlabki kunlaridanoq ajdodlarimiz tomonidan ko'p asrlar maboynda yaratilib kelingan g'oyat ulkan, beba ho ma'naviy va madaniy merosini tiklash davlat siyosati darajasiga ko'tirilganligi nihoyatda muhim vazifa bo'lib qoldi», - degan so'zlarida ko'rishimiz mumkin.

Hozirgi davr talabi maktab o'quvchilarini hayotga har tomonlama tayyor qilib berishdir. Buning uchun, birinchi navbatda, o'qituvchilarning o'zлari hayotga tayyor bo'lishlari kerak. Shuning uchun pedagogika oliv o'quv yurtlari talabalari oldida o'ta mashaqqatli, sharaflvi va o'z maqbul yechimini kutayotgan bir qator vazifalar turibdi. Ulardan **birinchi** navbatda, o'z tanlagan kasblarini ongli ravishda sevish, **ikkinchidan**, ma'naviy jihatdan yuksak darajada savodxon bo'lish, **uchinchidan** ota-bobolarimizdan qolgan boy meros mazmuni va mohiyatini o'zlarida mujassamlashtirganligi talab etiladi.

Texnologiya – biror ishda, mahoratda, san'atda qo'llaniladigan usullar, yo'llar yig'indisi.

Pedagogik taxnologiya - ma'lumotlarni o'zlashtirish uchun qulay shakl va usulda uzatish va o'zlashtirish jarayonidan iborat.

Pedagogik taxnologiya – ta'lim maqsadlarini amalga oshirishda eng qulay, samarali o'quv jarayonini o'z ichiga olgan yagona tizimdir.

Shuning uchun ham o'quv rejalarida pedagogik taxnologiyalar va xalq pedagogikasi kurslariga alohida o'quv soatlari ajratilgan. Biz bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy-ma'naviy sifatlarini shakllantirish va rivojlantirish borasida 1993 yildan buyon amalga oshirib kelayotgan ilmiy-tadqiqot ishlarimizni mazkur kurslar mazmuniga tayangan holda, quyidagi yo'naliishlarda amalga oshirdik:

- qomusiy olimlar hayoti, faoliyatini ibrat - namuna qilib

ko'rsatish va ularning asarlarining tarbiyaviy ahamiyati asosida ta'lism - tarbiya berish;

- shoirlar, yozuvchilar hayoti, faoliyati va asarlarining tarbiyaviy ahamiyati asosida ta'lism-tarbiya berish;
- hadischi olimlar hayoti va faoliyatini ibrat-namuna kilib ko'rsatish, ularning asarlarining tarbiyaviy ahamiyati asosidagi ta'lism-tarbiya berish;
- «Donishmandlik uy»lari ta'lismotlari va ularning milliy tarbiyadagi roli va o'rni asosida ta'lism - tarbiya berish;
- tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan xalq hikmatlari, urf-odatlar, an'analar asosida ta'lism-tarbiya berish. Buning hammasi rivoyatlar asosida tarbiya qoidalariga amal qilingan xolda singdiriladi.

Tarbiya qoidalari:

- tarbiyaning aniq bir maqsadga qaratilganligi;
- tarbiyani hayotiy faoliyat bilan bog'liq hodisa deb bilish;
- shaxs tarbiyasida jamoaning o'rni borligi;
- tarbiyalanuvchi shaxsiga nisbatan talabchan bo'lish va uning shaxsini hurmat qilish;
- tarbiyalanuvchining tarbiya jarayonida yoshi va o'ziga xos xususiyatlarini e'tiborga olish;
- tarbiyaviy ishlarning izchilligi va muntazam olib borilishiga e'tibor.

Boshlang'ich sinf o'quvchilariga Milliy qadriyatlarni rivoyatlar asosi singdirish tizimini yo'lga qo'yishda biz qomusiy olimlarimizning, ulug' yozuvchi va shoirlarimizning, hadischi olimlarimizning hayoti va ijodi, asarlari ular tomonidan yozilgan asarlarining bugungi kundagi tarbiyabiy ahamiyati, hamda o'zbek xalq og'zaki ijodiyotining ta'lism – tarbiyadagi ahamiyatini inobatga oldik.

Bunda Tarbiya maqsadining aniqligi muxim axamiyat kasb etadi – O'zbekiston Respublikasining «Ta'lism to'g'risida» gi Qonuni, hamda

«Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» larining g’oyalarini e’tiborga olgan holda erkin, ijodkor, mustaqil fikr egasi bo’lgan barkamol insonni tarbiyalab voyaga yetkazishdan iboratdir. Ushbu maqsadga erishish yo’lidagi asosiy vosita bu shaxsda umumiy madaniyatni tarkib toptirishdir, ya’ni, shaxsning aqliy, ahloqiy, jismoniy, estetik, iqtisodiy, ekologik, huquqiy, mafkuraviy hamda mehnat madaniyatini shakllantirish kabi tarbiyaning bosh maqsadini amalga oshirish imkoniyatini yaratishdan iboratdir. Ana shular zamirida biz boshlang’ich sinf o’quvchilari faoliyatida munosabatlarni tarkib toptiramiz. Rivoyatlardan foydalanishda ham yosh avlodga undagi munosabatlar yaqqol tarzda ko’rsatilib, undagi tarbiyaviy munosabatlardan foydalanish yo’lga qo’yiladi.

Tarbiyaviy munosabatlar – insonlar o’rtasidagi doimiy munosabat (aloqalar) bo’lib, ular inson shaxsining rivojlantirishga, ya’ni, mustaqil ma’lumot, mustaqil ta’lim olish va o’z – o’zini tarbiyalashni shakllantirishga xizmat qiladi, shuningdek, bu boshqaruv jarayonida rahbarlar bilan xodimlar o’rtasidagi munosabatlarda turli shakllarda namoyon bo’ladi, ya’ni, rahbarlarning bilimi, muomala va muloqot madaniyati, kiyinishi, gavda harakatlari, boshqaruvchilik qobiliyati, fan – texnika, san’at va tabiatga bo’lgan munosabati hamda qiziqishi xodimlarning faoliyatiga o’z ta’sirini ko’rsatdi.

Tarbiyaviy munosabatlar – insonlarning o’zaro tajriba almashinishi, tajribalarni o’zlashtirishi, qo’llashi bo’lib, bunga fan, texnika, san’at va tabiat bilan bo’lgan munosabatlari kiradi. Bularga asosan tarbiyaviy munosabatlarning asosiy shakllarini ajratib ko’rsatish mumkin: **«inson – inson»**, **«inson – kitob - inson»**, **«inson – texnika - inson»**, **«inson – san’at - inson»**, **«inson – tabiat - inson»** shular jumlasidandir. Bu tarbiyaviy munosabatlar jarayonida inson ikkinchi bir insonga bevosita o’zining harakatlari bilan yoki vositalar yordamida ta’sir o’tkazish mumkin.

Bularning ilmiy tahlili «Bugungi kunga qadar milliy qadriyatlar mavzusida olimlarimiz tomonidan salmoqli ishlar amalga oshirilgan», degan xulosani chiqarishga asos bo’ldi.

Bu borada M.Inomova, J.G’.Yo’ldoshev, O.Musurmonova, U.Mahkamov, Sh. Mardonov, S.Nishonova, N.Ortiqov, M.Quronov, kabi pedagog olimlar, B.Ziyomuhamedov, S.Otamurodov, J.Tulenov kabi faylasuflarning bu borada bildirgan fikrlari, ilmiy g’oyalari, yangiliklari tadqiqot muammosini hal etishga xizmat qilgan muhim asosdir. Mazkur olimlar o’z ilmiy izlanishlarida milliy qadriyatlarni ta’lim tarbiya bobida beqiyos ahamiyat kasb etishlarini alohida ko’rsatib o’tishgan.

Bulardan tashqari N.Ortiqov «Yuksak ma’naviyat vatanparvarlik poydevori» masalasida, O’.Tolipov o’zining bir qancha ilmiy maqolalarida, Q.Yo’ldoshev «Beruniyning ilmiy merosi», J.Abdullayevning «Jismoniy tarbiya darslarida o’zbek xalq harakatli o’yinlari», S.Akbarovning «Milliy qadriyatlар va jahon adabiyotini o’qitish», F.AtAmirodovaning «Milliy qadriyatlар va milliy ruhiyat», A.Muxsiyevaning «Milliy tarbiya nazariyasining dolzarb masalalari», J.Mirzoning «Hakim at-Termiziy ma’rifati», S.Atamirodovning «Milliy mafkura tushunchasi, mohiyati, vazifasi, ildizlari va rivojlanish bosqichlari», X.Hamidiyning «Avesto va ma’rifat», D.Ro’ziyevaning «Forobiyning ilmiy pedagogik qarashlari», J.Xalilovning «Beruniy G’arbiy qit’a haqida»», A.Hikmatovning «Yaxshi xulq ziynatlari», A.Begmatovning «Milliy istiqlol g’oyasi va ta’lim tizimi», M.Haqqulovaning «Ona allasida xalqning orzusi, G.Muhammadjonovning «Avesto - eng qadimiy kitob» nomli ilmiy maqolalarida hamda T.Javlonovning «An’analar hayot sabog’i», M.Quronov, A.Nurmatovlarning «Milliy istiqlol g’oyasi, ko’rgazmali vositalar», G.V.Frolovaning «Pedagogicheskiye vozmojnosti EVM», M.M. Xayrullayevning «Buyuk siymolar, allomalar», Safo Ochil, Komil Hoshimovlarning «O’zbek pedagogikasi antologiyasi», «Milliy urf odat marosimi va an’analarining shaxs ma’naviy kamolotidagi o’rni» (1998 yil 30 noyabr, seminar - yig’ilish materiali), X.A.To’raqulovning «Ta’limda

insonparvarlik muammosi», «Milliy iftixor va ma'naviy tarbiya», «Milliy istiklol mafkurasini talabalarga o'rgatish tizimining axborot ta'minoti» kabi maqolalari va «Navro'zing muborak, O'zbekistonim» o'quv qo'llanmasi hamda Sultonmurod Olimning «Naqshband va Navoiy» kitoblarida milliy qadriyatlar va ulardan foydalanish yo'llari yoritilgan, biroq yuqorida qayd etilgan ishlar milliy qadriyatlarni bir tomonlama yoritgan bo'lsa, biz ularni guruhlarga jamlab, bitta yahlit tizimga keltirib, rivoyatlardan foydalanish tizimiga aloxida e'tibor qaratdik.

II BOB. BOSH^LANG'ICH SINF O'QUVCHILARIGA MILLIY QADRIYATLARNI SINGDIRISHDA RIVOYATLARDAN FOYDALANISH TIZIMI

2.1. Boshlang'ich sinf o'quvchilariga milliy qadriyatlarni o'rnatishning shakl va vositalari

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini milliy- ma'naviy qadriyatlar bilan tanishtirishda ota – bobolarimiz tomonidan tarbiya tizimida keng qo'llanib kelingan vosit alardan foydalanish maqsapdga muvofiq hisoblanadi. Bugungi kunda yoshlarning aql – zakovatini hisobga olgan holda ta'lif – tarbiya berishda ilg'or texnologiyalardan foydalanish orqali ko'zlangan maqsadga erishish eng samaralti usul hisoblanadi.

Yoshlar tarbiyasida tarbiya vositalari, omilari va asoslaring hyech bir jihatlarini e'tibordan chetta qoldirmaslik kerak. Biz ushbu ishimizda boshlang'ich sinf o'quvchilariga milliy qadriyatlarni singdirishda rivoyatlardan foydalanish tizimi haqida fikr yurit ishni o'z oldimizga maqsad qilib qo'ydik. Shuning uchun ham quyidagi tushunchaga to'xtalib, uning mazmun moxiyatini singdirish usullarini yoritishga harakat qilamiz.

Rivoyat: xalqning tarixiy o'tmishi haqidagi badiiy yodnomalar. Afsonalarga qaraganda tarixga yanada yaqin turadi.

Rivoyat (arab. - hikoya qilmoq) voqyea va hodisalarni, inson faoliyatini ba'zan uydurmalar vositasida, ba'zan real ta'svirlovchi og'zaki hikoya, folklor janri. Xajmi 2 yoki 3 epizotdan tashkil topadi, an'anaviy uslubiy shaklga ega bo'lmaydi. Odatda oddiy bir hikoyachi bayonidan boshlanib, og'izdan-og'izga o'tish jarayonida erkin talqin qilinadi. Rivoyat asosida voqyelik va tarixiy shaxs bilan bog'liq hodisalar yotadi. G'oyaviy mazmuniga ko'ra, tarixiy rivoyat hamda toponim rivoyatlarga bo'linadi. *Tarixiy rivoyatda* biror shaxs faoliyati va xalq qahramonlari bilan bog'liq hodisalar hikoya qilinadi, ahloq va odobning ideal me'yorlari tashviq etilib muayyan va faktlar xaqida axborot beriladi. Bunday rivoyatlar Navoiy,

Ulug’bek, Ibn Sino, Beruniy, Mashrab, Amir Temur, Sulton Mahmud hayoti va faoliyati bilan bog’liq voqyea va hodisalar asosida ham yaratilgan. **Toponim rivoyatlarda** shahar, qishloq, qo’rg’on, saroy, maqbaralar nomi hamda ularning yuzaga kelish sabablari bilan bog’liq voqyealar hikoya qilinadi.

Xotimasida, odatda, hikoyadan maqsad ta’kidlanadi va muayyan fakt izohlanadi. (Mas.. «Turabek xonim maqbarasi», «Andajon qoldi», «Odinaxonim», «Qo’ng’irot» va boshqalar).

Rivoyatlar bizgacha ko’proq og’zaki, qisman yozma shaklda yetib kelgan. Vosifiyning «Badoye’ ul- vokoye’», Xondamirning «Makorim ul-ahloq» va boshqalar asarlarida rivoyatlarning qadimiylarini namunalari keltirilgan. O’zbekistonda juda ko’p rivoyatlar yozib olingan va ular xalq tarixi hamda madaniy estetik qarashlarni o’rganishda muhim manbadir.

Bola rivoyatlardagi lutf va nazokat, aql va tadbir, ishq va vafo, yaxshilik va odamiylik kabi g’oyalarni anglasa, zulm va zo’rlik, xaqsizlik va adolatsizlik singari illatlarga qarshi kurashadi. Tarixiy rivoyatlarda esa tarixiy shaxslar xaqidagi so’nmas ma’lumotlarga ega bo’ladilar.

Rivoyat hayotiy voqyealarni hayotiy uydirmalar vositasida aks ettiruvchi og’zaki ijod janrlaridan biridir. Rivoyatlar tarixiy voqyealar, kishilar turmushi, ayrim shaxslar bilan bog’liq, u yoki bu voqyea xaqida xabar berish va uni tasdiqlash vazifasini o’taydi. To’maris, Shiroq, Alisher Navoiy, Ulug’bek, Ibn Sino, Beruniy, Mashrab, Amir Temur, Sulton Maxmud singari xalq qahramolari bilan bog’liq bo’lgan voqyealar, rivoyatlarda aks etib, ahloq – odob normalarini tashkil etadi. Rivoyatlar xalq diliga jo bo’lganadolatli rahnamoni istash, adolatsiz zolimlarni inkor etish kabi g’oyalarni bola ongiga singdirish yo’llarini ochib chiqishni asos qilib oladi. Ayrim rivoyatlar u yoki bu joyni nomi yoki biror obyekt bilan bog’langan bo’lib, hikoya etilgan voqyealar uzoq zamonda yuz bergen bo’ladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilariga rivoyatlar to'g'risida ma'lumotlar berishda ularning yosh davrlar xususiyatlarini e'tiborga olish zarur.

Rivoyatlar asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarida tariximizning boy o'tmishiga nisbatan qiziqish uyg'otib, tafakkur va malakalarni yanada boyitib borish orqali ularni komil inson qilib tarbiyalash yo'lga qo'yiladi.. Umuman olganda, rivoyatlar xalq tarixi, uning estetik qahramonlarini o'rganishda zarur bo'lgan og'zaki ijod janri hisoblanadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilariga milliy qadriyatlar to'g'risida tushuncha berishda biz ularning aql zakovatiga tayanib ish ko'ramiz. Nega deganda, boshlang'ich sinfga kelayotgan o'quvchilarining aql hajmi, dunyoqarashi, mактабга тайyor holda kelishi har xil darajada bo'ladi. Ularning bir qismi berilgan ma'lumotlarni tez anglab yetsa ayrimlari uning mohiyatini tushuna olmaydilar. Shuning uchun ham bugungi kunda maktablarda faorliyat yuritayotgan amalyotchi psixolqlar mактабга kelayotgan o'quvchilar bilan suhbatlashishda ularni ma'lum bir kategoriyalarga ajratib sinflarga joylashtirsa maqsadga muvofiq hisoblanadi. Kategoriylar deganda biz bog'chani tugatib mактабга qadam tashlayotgan bolalar, bog'chaga bormasdan to'g'ri uyidan kelayotgan bolalarni, bolalarning oilada dunyoqarashi boyitilganligi yoki boyitilmaganligini, aqlni o'stiruvchi va charxlovchi didaktik o'yinchoqlardan foydalanganlik ko'lamiga qarab o'quvchilar sinflarga joylashtirilsa o'qituvchiga qulay sharoit yaratilgan bo'lib, o'quvchilar bilan ishoshi oson bo'ladi. Shuning uchun ham biz mazkur bitiruv malakaviy ishimizda aql tushunchasiga alohida to'xtalib o'tishni maqsadga muvofiq deb bildik.

Aql – (lotincha ratyonalist, yun piya. franesis, arab Al-aql-asoslangan, maqsadga muvofiq) – insonning ma'naviy – ruhiy faoliyatiga barcha ashynarsalar hodisalarini qanday bo'lsa aynan shunday holda bo'lish qobiliyati mavhum fikrlar va tushunchalar yaratish xususiyati.

Aql tufayli inson o'z his-tuyg'ularini olingan xabarlarni muayan tartibga keltiradi, ularning chin yeki yolg'on ekanligini aniqlaydi xalq tomonidan yaratilganini bilib boradi.

Masalan, G'azzoliy aqlning Alloh va ilohiylik bilan bog'liq masalalarini to'la-to'kis mushohada etishga ojizligini ta'kidlaydi. Inson aql bilan hamma narsaning mohiyatiga yetish qurbida bo'lganida vaxiyga o'rinn qolmagan bular yedi. G'azzoliy «Aql o'zining ojiz va notovonligini tushunib yemish uchungina kerak holos» - degan xulosaga keladi. Aql barosida o'tmish hozirgi zamon davr va kelajak babbaravardir. Aqlning makoni va vaqtি cheksizdir.

Farobiyning fikricha ezgu - fikr donishmandlarning durdona g'oyalariga mangulik muhri bosilgandek aql ham abadiydur. Aql bilan jonli mushohadani bilish jarayonining zarur bosqich va vositalari sifatida talqin etish va ulardan samarali foydalanish muhimdir .

Ong-tafakkur markazi unda fikr va ma'lumotlar jamlanadi. Ongda qalbdagi e'tiqot asosida dunyoqarash shakllanadi. Dunyoqarashi mustahkam odamni esa yengib bo'lmaydi .

Ong – aql, tafakkur, falsafiy kategoriyalardandir. Ong ko'p qirrali va murakkab bo'lganligi tufayli, falsafa, psihologiya, psixiatriya, fizialogiya, kibernetika, informatika singari turli fanlarni o'rganish obyekti hisoblanadi. Ko'pincha dinlarda inson ongi buyuk ilohiy aqlning aks yetishi, uning namoyon bo'lish shakli tarzida tavsiflanadi.

Inson tanasidagi ruh bizning fikrlarimizning tashuvchisidir. Ong tarixi insonning inson bo'lib shakllana boshlashi tarixi bilan bog'liq. Ong tarkibi quyidagi unsurlardan tashkil topadi: sezgi, idrok, tasavvur, fikr, his- hayojon, iroda.

Ong insonda aloqalar, munosabatlar, o'z-o'ziga munosabatini ham o'z-o'zini anglashni ham o'z ichiga oladi. Obyektiv dunyo qonuniyatları to'g'risida umumiy bilishlar shakllanishiga asos bo'ladi.

Bilim - ijtimoiy – tarixiy amaliyotda tekshirilgan va mantiqan tasdiqlangan, voqyelikning bilish jarayonida erishgan natijasi shu voqyelikni inson ongida tasavvurlar, tushunchalar, muhokama va nazariyalar orkali ifodalangan in'ikosi.

Kundalik tasavurimizda nimaning nima ekanligiga ishonsak va bu ishonchimiz biz odatlangan voqyea va hodisalarga (qidalgara zid kelmasa) bunday ishonch bilim hisoblanadi.

Boshlang'ich sinf o'qvuchilarining aqlan biron bir narsaga yondashuvi o'ziga xos maxorat va bilimni talab qiladi. Shuning uchun ham boshlang'ich sinf o'quvchilariga milliy qadriyatlarga nisbatan ongli munosabatda bo'lishi uning aql va bilim doirasiga bog'liq bo'lib qolar ekan. O'quvchilarining bilimi ularning sayi harakatlari zamirida yuzaga keladi.

Bilim kundalik tajriba kuzatish orqali to'planadi. Bilimlarni tadqiq etuvchi ta'limot – epistimalogiyada persetiv (hissiy), hayotiy - kundalik (sog'lom aql) va ilmiy bilim shakllari ajratib ko'rsatiladi.

Ilmda bundan tashkari bilimlarga madaniyat, adabiyot, san'at, mifologiya, din va shu kabi sohalarga oid bilimlar kiradi.

Tarbiya:

Tarbiya jarayoni shaxsning muayyan maqsad asosida ijtimoiy hayotga tayyorlovchi tarixiy - ijtimoiy tadbirga suyaangan holda olib boriluvchi faoliyat jarayonidir. Boshqacharoq talqin etilganda, tarbiya jarayoni yosh avlodni muayyan maqsad yo'lida har tomonlama (tarkib toptirishga) voyaga yetkazishga unda ijtimoiy ong va xulq - atvorni tarkib toptirishga yo'naltirilgan faoliyat jarayonidir.

Tarbiya xususida taniqli o'zbek pedagogi A.Avloniy shunday deydi: «Al-Hosil tarbiya bizlar uchun yo hayot - yo mamot, yo najot - yo halokat, yo saodat - yo falokat masalasidir». Ushbu fikrlardan xulosa chiqarsak shaxs tarbiyasi xususiy emas, balki ijtimoiy, o'z navbaktda milliy hamdir.

Tarbiya - shaxsni maqsadga muvofiq takomillashtirish uchun uyushtirilgan pedagogik jarayon bo'lib, tarbiyalanuvchining shaxsiga muntazam va tizimli ta'sir etish imkonini beradi.

Tarbiya jarayoni o'zaro bog'liq bo'lган иккি faoliyatni, ya'ni o'qituvchi va o'quvchi faoliyatini o'z ichiga oladi. Tarbiya jarayonida o'quvchining ongi shakllana boradi. His-tuyg'ulari rivojlanadi, ijtimoiy hayot uchun zarur bo'lган va ijtimoiy aloqalarni tashkil qiladigan xulqiy odatlar hosil bo'ladi.

Tarbiya jarayonida bolalarning hayoti uchun zarur bo'lган va ijtimoiy va faoliyatini pedagogik jihatdan to'g'ri uyushtirish g'oyatda muhimdir.[9]

Tarbiya yaxlit jarayonda amalga oshiriladi. Shuning uchun ham uning tarkibiy qismlari xam ayni bir vaqtda faoliyatning biror turi asosida amalga oshiriladi.

Tarbiyaning tamoyillari:

Tarbiya tamoyillari deb, yosh avlodni tarbiyalash maqsadidan kelib chiqadigan va komil insonni tarbiyalashning mazmuni va yo'naliishiga qo'yiladigan eng muhim talablarni belgilab beruvchi assosiy g'oya va qoidalar yig'indisiga aytildi.

Tarbiya tamoyillari o'qituvchi va tarbiyalanuvchilarga yo'l-yo'riq ko'rsatuvchi qoidalar bo'lib, yosh avlodni tarbiyalash, barkamol insonni shakllantirish vazifalariga muvofiq belgilanadi, shuningdek, ular shaxs tarbiyasi borasidagi ilg'or ta'limotlar g'oyalariga, hamda pedagogika fanida erishilgan yutuqlarga asoslanadi.

Tarbiya tamoyillari tarbiya jarayoni qonuniyatlarini aks ettiradi. Tarbiya jaryonida ilg'or tamoyillarga amal qilinishi tarbiya samarasini ta'minlaydi. Tarbiya tamoyillari quyidagilardan iborat:

- tarbiyaning maqsadga yo'naltirilganligi va g'oyaviyligi;
- tarbiyada demokratik va insonparvarlik g'oyalarini ustunligi;
- tarbiyada milliy va umumbashariy qadriyatlarni ustunligi;
- tarbiyada izchillik va tizimlilik;
- tarbiyani ijtimoiy hayot bilan qo'shib olib borish;
- tarbiyani mehnat bilan bog'lash;
- tarbiyalanuvchi shaxsini hurmat qilish;

- tarbiyada o'quvchining yosh va alohida xususiyatlarini hisobga olish;
- jamoa va jamoa yordamida tarbiyalash;
- tarbiyada o'quvchi xulqidagi ijobiy sifatlariga tayanib, salbiy tamonlari yo'qotish.

Tarbiyalash usullari:

Tarbiya yaxlit jarayonda amalga oshiriladi, uning tarkibiy qismlari ham ayni bir vaqtda faoliyatning biror bir turi asosida amalga oshiriladi. Umumiyligida pedagogik jarayonda tarbiya muhim o'rinni tutadi. Shaxsni shakllantirish boshqaruv nazorat tavsifiga ega bo'lib, bu borada belgilangan vazifalar tasodifiy harakatlar orqali emas, balki oldindan belgilangan va puxta o'yangan rejalar asosida hal etilib boriladi.

Tarbiya jarayonida uning maksadi, shakli, iste'dodlari, shaxsning o'zini - o'zi tarbiyalash va qayta tarbiyalash jihatlari muhim o'rinni tutadi.

Tarbiya jarayonining jamiyat taraqqiyotidagi roli nihoyatda beqiyosdir. Insonni tarbiyalash, uni bilim olishga, mehnat qilishiga undash va bu hatti – harakatni sekin – asta ko'nikmaga aylantirib borish lozim. Insonning mushohoda qilish qobiliyatini tarbiyalash, aqlni peshlash demakdir.

Aql ongni saqlaydi. Ong esa moddiy va ma'naviy manbagaga aylanadi. Shu tariqa inson sekin-asta takomillashib, komillikga harakat qilib erishib boradi. Ammo, buning uchun tarbiyachi va tarbiyanuvchidan uzoq davom etadigan mas'uliyat sharaflı mehnat va qunt, irodani talab etadi. Buning uchun bolalarning yosh xususiyatlarini hisobga olish zarur. Ma'naviy, insoniy sifatlarning shakllanishida oiladagi, atrofdagi, muhim va bolalarga bo'lgan munosabat muhim rol o'ynaydi. Aniq bir maqsadga qaratilgan tarbiyaning samaradorligi tarbiyachining qanday metoddan foydalanishga bog'liq.

Metod - yunoncha atama ekanligini va u aynan nimagadir yo'l, usul orqali maqsadga erishish yo'lini bildirishi bizga ma'lum. Metod, usul axborotni uzatish va qabul qilish xarakteriga qarab:

1. So'z orqali ifodalash usuli.
2. Ko'rgazmalilik usuli.
3. Amaliy namuna usuli.
4. Rag'batlantirish usullariga bo'linadi.

Tarbiyalash vositalari:

Tarbiya vositalariga tarbiyaning maqsadiga muvofiq tashkil qilingan faoliyat turlari kiradi.

O'yin, o'quv mehnati, sport va boshqa faoliyat turlari shunday vositalar hisoblanadi. Bundan tashkari tarbiya jarayonida turli predmetlar, moddiy va manaviy madaniyat namunalari, axborot hamda, texnik vositalardan ham tarbiya vositasi sifatida foydalaniladi. Chunonchi, ko'rgazmali o'quv qurollari, badiyilmiy adabiyotlar, san'at asarlari, radio televideniya, kompyuter, magnitafonlar tarbiyalashda vositalardir.

Tarbiya vositalaridan foydalanish doimo unga muvofiq keluvchi tarbiya metovlaridan foydalanishni taqoza etadi, chunki ular yordamida ong, xis tuyg'u, xulq - atvor tarkib toptiriladi. O'quvchining turli ko'rinishdagi faoliyati uysushtiriladi.

Yuqorida bildirilgan mulohozalarga tayangan holda mavzu yuzasidan quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

1. Tarbiya jarayonining asosini ijtimoiy hayotning obyektiv talablari, shaxsning ijtimoiy mohiyatini hamda tabiatini aks ettiruvchi qonuniyatlar tashkil etgani bois tarbiya jarayonini ilmiy asoslangan tarzda olib borish, uning qonuniyatlarini chuqr o'rganishni talab etadi.

2. Tarbiya jarayoning muvaffaqiyati uni tashkil etishda va qanday tamoyillarga ko'ra ish ko'rilibotganligiga ham bog'liq. Tarbiya tamoyillari

yosh avlodni tarbiyalash maqsadidan kelib chiqqan holda komil insonni tarbiyalashning mazmuni, metodlari va yo'nalishiga qo'yiladigan eng muhim talablarni belgilab beruvchi asosiy g'oya va qoidalar yig'indisidir.

3. Tarbiya jarayonini tashkil etishda o'qituvchi tomonidan qo'llaniladigan metodlar ham muhim ahamiyatga ega bo'lib, ular jamiyat tomonidan ta'lif muassasalari oldiga qo'yilgan yosh avlodni har tomonlama barkamol, erkin ijodkor, mustakil fikr egasi etib tarbiyalash vazifalari bilan belgilanadi. Tarbiya metodlari o'zaro o'xshash jihatlariga ko'ra 3 guruhga bo'linadi.

Tarbiya jarayonida qo'llaniladigan tarbiya vositalari tarbiya metodlari ahamiyatini kuchaytirishga xizmat qiladi.

Tarbiya jarayonini ilmiy asoslangan tarzda olib borish, uning qonuniyatlarini chuqr o'rganishni talab qiladi. Bu qonuniyatlar voqyealarning muayyan rivojlanishi uchun sharoit yaratuvchi sabab va oqibat o'rtaсидagi muhim, zarur ichki aloqalarning ifodasi sifatida namoyon bo'ladi.

Tarbiya jaryonining asosini ijtimoiy hayotning obyektiv talablari insonning ijtimoiy mohiyatini va tabiatini aks ettiruvchi qonuniyatlar tashkil etadi.

Tarbiyaning eng muhim va *birinchi* qonuniyati uning ijtimoiy muhitning obyektiv va subyektiv omillariga bog'liqligidir.

Demokratik tamoyillar hamda qonun ustuvorligi ta'minlangan sharoitda tarbiyaviy jarayonning ijtimoiy muhit bilan o'rnatiladigan aloqalari shaxs shakllanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Tarbiyaning *ikkinci* muhim qonuniyati, uning shaxs rivojlanishi bilan birligi, o'zaro aloqadorligi va bog'liqligidir.

Tarbiyaning *uchinchi* qonuniyati tarbiya faoliyati va munosabati birligini e'tirof etish, shaxsning ijobiy fazilatalarini shakllantirishning asosiy manbai bo'lib xizmat qiladi. Tarbiyalanuvchining faoliyati jamiyat uchun qanchalik foydali,

maqsadga muvofiq tashkil etilsa, shaxs va jamiyat o'rtasidagi munosabat oqilona bo'lsa, tarbiya jarayoni shunchalik samarali bo'ladi.

Tarbiyaning *to'rtinchi* qonuniyati tarbiyalanuvchilarning o'zaro tarbiyaviy ta'sirga ega ekanliklari, ularning o'zaro munosabatlari xamda faol faoliyatlar o'rtasidagi bog'lanishning mayjudligi sanaladi.

Boshlang'ich ta'limda o'quvchilarni milliy qadriyatlargacha nisbatan ongliklari munosabatda bo'lishni tarkib toptirishda tarbiyaning qonunlari va qonuniyatlari muhim ahamiyat kasb etadi. Tarbiya ijtimoiy muhitning obyektiv va subyektiv omillariga bog'liq bo'ladi va uning shaxs taraqqiyoti (rivojlanishi) bilan birligi o'zaro aloqadorligi va bogliqligida namoyon bo'ladi.

Tarbiyalanuvchining o'zaro tarbiyaviy ta'siriga ega ekanliklari, ularning o'zaro munosabatlari hamda faol faoliyatlar o'rtasidagi bog'lanish tarbiyaviy ta'sirlarni kuchaytirishga imkoniyat yaratadi.

Tarbiya jarayonining qonuniyatlari bilan birga bola tarbiyasining ham o'ziga xos bir qator muhim qoidalari ham bo'lib, ular quyidagilardir:

- tarbiyaning aniq bir maqsadga qarab kelinganligi;
- tarbiyaning hayotiy faoliyat bilan bog'liq hodisa, deb bilish;
- shaxsni jamoada tarbiyalashga oid o'rni;
- tarbiyalanuvchi shaxsga nisbatan talabchan bo'lish va uning shaxsini hurmat qilish;
- tarbiyalanuvchi (o'quvchi) ning tarbiya jarayonida yoshi va o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olish;
- tarbiyaviy ishlarning izchilligi va muntazam olib borilishiga e'tibor.

Tarbiya turlari:

Oila tarbiyasi.

Oilaviy hayot va oilaviy tarbiya o'zining milliy xususiyatlariga ham egadir. O'zbekiston sharoitida oilaviy tarbiyaning o'ziga xos tomonlari borki, buni e'tirof etmasdan iloji yo'q. Pedagogik jihatdan olganda ko'p bolali

oilalarda ota – onalar bolalar uchun yaqqol namuna bo’lib xizmat qilishadi. Xalqimizda «Bolali uy bozor, bolasiz uy mozor» deb bejiz aytishmagan. Xalqimiz o’zidan keyin surriyot qoldirmaslikni qoralaydi. «Erkak nomiga ega bo’lish uchun 3 qoida amalga oshirishi kerak». Bu uylanish, farzandli bo’lish va uy qura olishdir».

Xalq pedagogikasida oila pedagogikasiga alohida e’tibor beriladi. Chunki tinch-totuv yashaydiganlarning oilalaridan bolalar ham shu oilada mayjud bo’lgan axloqiy xislatlar: xushmuomalalik, odoblilik, kattalarga hurmat, kichiklarga g’amxo’rlik qilish, oila a’zolari o’rtasidagi o’zaro hurmat, ayniqsa, ayollarga nisbatan ko’rsatiladigan g’amxo’rlik kabi fazilatlardan ibrat oladilar. M: A.Avloniy o’zining «Turkiy guliston yohud axloq» nomli asarida shunday deyilgan: «Tarbiyani kimlar qilur? Qayerda qilinur?» degan savol keladur. Bu savolga 1-uy tarbiyasi, bu ona vazifasidur, 2-maktab tarbiyasi. Bu ota, muallim, mudarris va hukumat vazifasidir.

Ma’lumki, bola mакtabga kelgunga qadar ham, mакtabda o’qish davrida ham, asosan oilada tarbiyalanadi. Azaldan o’zbek xalqida oila muqaddas hisoblangan. U avvalo, nikoh bilan mustahkamlangan. Nikohdan tashqari oila qonuniy hisoblanmagan, balki axloqsizlik sanalgan.

Masalan: Ibn Sino: «Bola tug’ilguncha ota avvalo unga yaxshi nom qo’yishi, so’ngra esa uni yaxshilab tarbiya qilishi kerak», deb ta’kidlaydi.

Agar oilada tarbiyaning yaxshi usullaridan to’g’ri foydalanilsa oila baxtli bo’ladi. Buning uchun «Tadbiri manzili»dan foydalanish kerakki, unda tarbiyaning to’g’ri usullari ko’rsatilgan.

Xotin kishi bilimli bo’lishi, dinga ishonishi, uyatchan, sharm – hayoli, tabiatan jasur, o’z erini qattiq sevishi, kamtar va fazilatli bo’lishi, u hyech vaqt o’z shaniga dog’ tushurmasligi, eri bilan ehtiyyotkor bo’lib, uning hurmatini joyiga qo’yib muomala qilishi shart. O’z vazifasini va burchini yaxshi bilishi, xotin oila xo’jaligidagi narsalardan to’g’ri, tejab foydalana bilishi, u o’zining xarakteri va

yaxshi tomonlari bilan eridagi kamchiliklarni yo'qotish kerak. Alisher Navoiyning ta'lim – tarbiya haqida, oila tarbiyasi haqidagi fikri ibratlidir:

«Har bir oila farzand ko'rmog'i va uni tarbiyalab voyaga etkazmog'i kerak.

Farzand ota-onaning o'rribosari. Farzand ko'rmak, uni tarbiyalab o'stirmoq har bir ota va har bir onaning burchidir. Inson uchun kelajak avlodni yaratishdan, uni tarbiyalab, kelajak uchun foydali kishi qilib yetishtirishdan ko'ra xayrli va lazzatli narsa yo'qdir». Sharqning buyuk allomalaridan biri Muslixiddin Sa'diy Sheroziy: Sa'diy bolani tarbiyalash vazifasini ularning ota-onalariga, ayniqsa otaga yuklaydi, ya'ni oilaviy tarbiyaga katta e'tibor beradi. Shuning uchun u ko'proq ota-onalarga, ko'proq otaga murojaat qiladi.

Sa'diy ota-onalarga har bir farzandning xulq atvorini hisobga olgan holda bolalarni qobiliyatli qilib o'stirishni, axloqiy tarbiyani yoshligidan boshlashni tavsiya etadi. Sa'diyning uqtirishicha, xulq – atvor shakllanib bo'mas, bolaga tarbiya uncha kor qilmaydi deydi. Ota-onalar, ayniqsa, ota bolasi tarbiyasiga e'tibor bermasa, bola yomon odamlarga qolishi aylanib mumkinligini aytadi. U mehnat tarbiyasiga katta e'tibor beradi va har bir yosh avlod oiladagi ahvoldidan qat'iy nazar, hunar o'rganishi kerakligini aytadi:

**Hunar lozim, naqshni chizsa bo'lgay,
Devorlarga buyoqlar pushti, zangori.
Agar bo'lmas ekan fazli hunar hyech,
Bilib bo'lmas odamni, naqshi devor.**

Sa'diy oilada ayollarning mavqyei haqida to'xtalib, ayollar hayotda erlari uchun do'stdurlar. Ayollar nafaqat tashqi ko'rinishdan, balki ma'naviy jihatdan ham go'zal, rostgo'y, itoatkor o'z eriga sodiq, shirin so'z bilimlari va oilaning baxti, mustahkamligi uchun g'amxo'rlik qilishi va kurashmog'i lozim deydi, onalarni insonga hayotbaxsh etgan ulug' zot sifatida ulug'laydi.

Sa'diyning uqtirishicha, oila bolaning baxti, kelajagi uchun zamin yaratadi. Shoir oilada asosiy tayanch deb otani biladi. Sa'diy ota-onalarga

ayniqsa, otalarga o’z bolalarini tarbiyalashni, o’qitishni, hunar o’rgatishni, jismonan chiniqtirishni, ularga odamlar bilan muloqatda bo’lish odobini o’rgatishni, sog’lom bo’lish uchun muayyan me’yorda ovqatlanishga odatlantirishni tavsiya etadi.

Qadimiy muqaddas kitobimiz «Avesto»da esa *qarindoshlarning o’zaro oila ko’rishi man qilingan. Qavm va urug’ qonini toza, avlodni benuxson saqlash uchun shunday qilingan.* Ko’p bolali oilalarga davlat hisobidan nafaqat tayinlash lozimligi qayd etilgan. Unda bir yo’la 2-3 ta tuqqan ayollar mukofat olishga sazovor deb uqtiriladi.

Islom dinining muqaddas kitobi Qur’oni Karimda eng avvalo, Ollohning o’zigagina ibodat qilishga, so’ngra bevosita ota-onani rozi qilish buyuriladi. Ota-onasi bilan muloqotda bo’ladigan farzand besh narsani bilishi kerak.

- 1.Ota-onalari qattiq-quruq gapirib yuborganda ham ularga malol kelib, «uff» demaslik.
- 2.Ota-onanin xafa qiladigan so’z so’zlamaslik.
- 3.Ota-onaga doim ehtirom bilan yaxshi so’zlarni so’zlash.
- 4.Ota-onaga doimo rahm-shavqatli bo’lishi, o’zini kamtar tutishi.
- 5.Oollohdan ota-onalarga rahmat tilab duo qilishlari.

Ota-onalar bolani dunyoga keltirishga sabab bo’lganlari uchun emas balki uni odobli, hayoli, axloqli qilib voyaga etkazganliklari uchun olqishga sazovordirlar.

Payg’ambarimiz «Kishi o’z bolasiga odobdan ko’ra afzalroq narsa a’totolmaydi»-deydilar.

Rivoyat. Bir yigit baqlajonni juda xush ko’rar ekan. Undan taom pishirib, endi yeyman deb tursa, safarga ketgan onasi kelib qolibdi. U juda ochiqqan ekan. Boshqa tayyor taomi yo’qligi uchun, farzandi uning oldiga baqlajondan tayyorlangan taomni qo’yibdi. Ona nihoyatda och bo’lgani uchun bu kamtarona taomni yeyib turib, beixtiyor:

- baqlajon ham juda xushxur taom bo'lar ekan, - deb yuboribdi.

Bu so'zni eshitib qolgan o'g'li darhol baqlajonni maqtay ketibdi. Biroq onaning qorni bir oz to'ygach, me'dasiga tegibdi: «Shu ham ovqat bo'ldimi, hali to'ymasingdan me'dangga tegadi», degan ekan, o'g'li o'sha zahotiyoyq baqlajonni yomonlay boshlabdi. Buni eshitgan onasi:

- hoy o'g'lim, hozirgina baqlajonni maqtayotgan eding, endi esa uni yomonlay boshladning, bu qanaqasi? – debdi.

Shunda o'g'li:

- Ey onajonim, men baqlajonni emas, sizning o'g'lingizman. Shuning uchun sizga xush yoqadigan narsalarni gapirishim kerak, - deb javob beribdi.

Sen ham, ey farzandim, onasizga sodiq shu o'g'il kabi ona xalqingga sodiq bo'l, uning rayiga qarab harakat qil. Qadriyatlarimizni, an'analarimizni doimo ulug'la. Agar bordi-yu, shoir yozuvchi bo'lsang, uning madhini kuyla, xohish – irodasini tarannum et. Negaki sen shu ona xalqning farzandisan. Farzand esa hyech qachon onasining xohish – irodasiga qarshi ish qilmaydi.

Qissadan – hissa shuki, men bu rivoyatni tarbiya jarayonida oila tarbiyasida qo'llash mumkin. Chunki, bu rivoyat zamirida onaga bo'lган mehr – muhabbat, ishonch – hurmat yotibdi. Shuning uchun ham farzandning onaga bo'lган sodiqligi, vatanga bo'lган sodiqligini yanada shakllantirish va singdirish, onaning xohish irodasi bir amr sifatida bajarishni ko'rib bundan ibrat – namunasini shakllantirishi mumkin.

Rivoyat: Aytishlaricha, podshoh bir ayolning eri, o'g'li va akasini zindonga solibdi. Ayol bechora bu musiybatga chiday olmay podshoh huzuriga borib, ularni ozod qilishini so'rabdi. Podshoh unga:

- mayli, shuncha olis masofadan najot izlab kelibsani, noumid bo'lma. Uchovidan bittasini ozod etaman. Qay biri ekanini o'zining tanla, - debdi.

Ayol akasini tanlabdi. Shunda podshoh:

- ey ayol, sen nega o'g'lingni ham emas, erinnig ham emas, akangni ozod qilishimni tanlading, - deb so'rabdi;

- buning sababi shundaki, - debdi ayol, - yurtda erkak ko'p, nasib etsa birortasiga turmushga chiqarman. Keyin xudo bersa, farzandlik ham bo'larman. Biroq mening onam yo'q. Shunday ekan, endi menga hyech kim aka tug'ib bera olmaydi!

Ayolning bu javobi podshohni lol qoldiribdi. Uning mehri tovlanib, ayolning Eri va o'g'lini ham ozod etibdi.

Demak, ta'lim-tarbiya jarayonida rivoyatlardan keng foydalanish orqali ma'lum bir samaralarga erishish mumkin. Boshlang'ich sinf o'quvchilari tarbiyasida bunday samarali yutuqlarga erishish uchun bugungi kunda keng qo'llanayotgan zamonaviy pedagogik texnologiyalardan keng foydalanish lozim. Bu haqda biz keyingi qismda alohida to'xtalib o'tamiz.

2.2. Boshlang'ich sinf o'quvchilariga milliy qadriyatlarni singdirishda rivoyatlardan foydalanish texnolgiyalari

Boshlang'ich ta'lurma ona tili, matematika, rasm, musiqa, o'qish, atrofimizdagi olam, odobnama darslarida milliy qadriyatlar o'quvchilar ongiga singdirilib boriladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari ongiga milliy qadriyatlarni singdirishda rivoyatlardan foydalanish o'z ta'sir kuchiga ega. Shuning uchun ham biz ta'lim-tarbiya jarayoniga rivoyatlarni olib kirish orqali milliy qadriyatlarni o'quvchilar ongiga singdirishni maqlub deb topdik.

O'quvchilarimizga milliy qadriyatlarni singdirishda boy va sermazmun o'tmishimizga tayanishimiz va ular orqali har bir yosh avlodni barkamol shaxs qilib tarbiyalashda xalqimizning tarbiya borasidagi fikrlariga amaliy o'gitlariga xalq pedagogikasiga tayanib ish ko'rish har doim ham dolzarb muammo bo'lib qolaveradi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilariga rivoyatlar asosida tarbiya berish o'tmishdagi ota – bobolarimizning axloq - odoblari, mehnatsevarligi, vatanparvarligi, ezgu – niyatliligi, madrligi, insoniyligi va shu kabi boshqa ijobjiy fazilatlarni yoshlar ongiga singdirish mumkin.

Ma'luki, hikoyat va rivoyatlar xalq ichida og'izdan – og'izga o'tib yuradi va xalqimizning ma'naviy boyligiga aylanadi. Shu sababli ham talabalar ma'naviy tarbiyasida ularidan foydalanish ijobjiy pedagogik samaralarni beradi, deb ishonch bilan ayta olamiz. Bu o'rinda rivoyatlar ko'pincha ibrat – namuna sifatida qo'llaniladi. Chunki, rivoyatlarda aytishicha, ularidan yaxshi va yomon xislatlar, pand – nasihatlar qilingan, ezgu ishlar hikoyat qilinadi. Demak, rivoyatlardan yoshlarimizga tarbiya berishda bemalol foydalansak bo'lar ekan.

Misol uchun 2 sinf odobnama darsligida "Dono momo" degan rivoyat berilgan.

“Qadim zamonda bir qishloqda qurg’oqchilik bo’lib, ekinlar qurib qolibdi daraxtlardagi mevalar ham pishib yetilmay qurib yerga to’kilmay tomom bo’libdi. Xalq juda qiynalib ochlik azobini topibdi.

Bu o’lkadagi axvolni eshitgan qo’shni mamlakatdagi zolim podshoh shu o’lkaga urush e’lon qilibdi va son-sanoqsiz askarlari bilan bostirib kela boshlabdi. Xalq sarosimag tushubdi. Jon saqlab qolish uchun to’rt tarafga qocha boshlabdi. Shunda bir kulbada yashaydigan momo ularni to’xtatibdi:

- bolalarim, azizlarim, - debdi momo baland avozda. – yurtni tashlab ketish – katta gunox. Xalq boshiga tashvish tushib turgan paytda bunday qilish er kishining ishi emas. Irodangizni mustahkam tuting ochlik deb shunday qilayotgan bo’lsangiz menda bir ne’mat bor shuni bo’lib yediray, kuchingizga kuch, quvvatingizga quvvat qo’shildi, - deb bir xalta ko’tarib chiqibdi. Odamlar qarab turishgan ekan xalta bo’m-bo’sh emish. Oralarida sabirsiz odamlar ham bor ekan:

- voy momo-ey, axir xaltada xech vaqo yo’qku! – debdi ular.
Shunda momo:

- shoshma bolam, shoshish shoytonning ishi, - dedida xaltaning bir burchagidan bir mayizni olib ularga ko’rsatibdi.

- Mana, men aytgan ne’mat. Bu oxirgisi sizlarga nasib etgan ekan,
- deb toshning ustiga mayizni qo’yib bo’la boshlabdi. Shunda sabirsiz odamlardan biri:

- Bu kampir, bizni yo’ldan qoldirib, yovga qurban qilmoqchimi, - debdi.

- Yo’q bolam, sabir tagi sariq oltin noumid bo’lmanglar, mana, mayizni qirqqa bo’ldim, olib og’izlaringa solinglar, o’zingizni qanday his etishingizni tezda bilasizlar debdi.

Odamlar mayizni tamshanib yebdilar. Shunda mo’jiza yuz beribdi. Hammalari o’zlariga kuch quvvat sezibdilar va qochish haqidagi fikrlaridan

qaytib yov tomon birgalashib boribdilar. Uch kecha kunduz jangu jadaldan so'ng bir mayizni qirqa bo'lib yegan yigitlar to'g'ri momo oldiga kelib ta'zim qilibdilar chunki ular g'olib chiqib Vatanlarini hmoya qilgan ekanlar". Ushbu dono momo rivoyati orqali biz o'quvchilarga:

- ona yurtning qadri;
- bunda har bir jangchi o'zi yashab turgan ona yurtini qadrini his qilish uchun uning bolalik chog'larini ko'z oldiga keltirib, bobosining tokzorda unga ishlov berishini, momosining issichgina non yopganini, onasining nonushta tayyorlayotganini bir oz tassavur qilib quvvatga to'lganligini boshlang'ich sinf o'quvchilariga tushuntirib berish kerak. Ana shunda o'quvchilar qishloqdagi bog'lar qancha mexnat evaziga paydo bo'lganligini ko'z oldilariga keltiradi.
- qariyalar hikmati bunda boshlang'ich sinf o'quvchilariga o'qituvchi dono momoning insoniy fazilatlarini ko'rsatib berishlari kerak;
- xalq maqollari orqali boshlang'ich sinf o'qituvchisi o'quvchilarda vatanparvarlik xislatlarini shakllantiradi.

Ona yering omon bo'lса, rangi ro'ying samon bo'lmas.

O'zga yurtning gulidan, o'z yurting tikoni yaxshi.

- birodorlik fazilatlarini tarkib toptirishda dono momoning maslahati nimalarni o'zida aks etirishini bahs munozaralar orqali o'quvchilar hukmiga tashlanadi.
- sabirli bo'lishni boshlang'ich sinf o'quvchilariga o'rgatishda yana dono momoning maslahatiga qaytamiz – deb bolalarning eslash qobiliyatini yuksaltirishga qaratilgan texnologiyalardan foydalanamiz.
- bu rivoyatda xalqning birlashishi, do'stlar bilan ham jixat bo'lishga dono momoning fikrlarini o'quvchilarga singdiramiz.

- Dono momoning bu so'zlaridan jangchilarda vatanga bo'lgan xislatlari, ya'ni mardlik, jasurlik kabi xislatlar o'quvchilarda namoyon bo'ladi.
- vatanni doimo asrash kabi tuyg'ular qadriyat sifatida o'quvchilar ongiga sangdiriladi. Bunda asosan yuqorida qayt etilgan har bir tushunchaga o'quvchilardan izoh berilishi talab qilinadi va har bir tushunchaga mos rivoyat, ertak, hikoyalar aytib berilishi so'raladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilariga mehr muhabbat haqida gapirilganda rivoyatlardan foydalanish ham o'ziga xos samarali tomonlarini ko'rsatadi.

«Bir arslon haybat bilan o'tirganicha o'ylardi. Shu payt panjasি ositidan bir yumronqoziq tuproqdan chiqib qoldi. ARSLON yumronqoziqqa chang solmadi va mardlik ko'rsatdi.

Yumronqoziq arslonning bu ishi uchun mammun bo'ldi. Minglarcha tashakkur aytib, yaxshiligini unutmadi. Ertasi kuni arslon ov qilayotib tuzoqqa tushib qoldi. Har qancha kuchli bo'lmasin, qanchalik baqirmasin, u tuzoqdan chiqa olmadi. Uning hayoti havf ostida edi.

Arslonni bu holda ko'rgan yumronqoziq darhol yugurib kelib, o'tkir tishlari bilan tuzoqni qirqib tashladi. Arslonni tahlikadan qutqardi.

Qissadagi arslon qanchalik qudratli bo'lmasin, u to'rga tushgach, majolsiz qolib, o'limga mahkum bo'lgan edi. Uni baquvvat panjasи emas, faqat yumronqoziqning tishidagi quvvati qutqardi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilariga bunday rivoyatlar orqali jamiyat va tabiatning sir asrorlarini o'rgatishda biz zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanib katta ekranga yoki elektron doskalarga tabiatning go'zal manzaralarini jumladan

- har xil turdagи gullarning rasmini,
- har xil turdagи kapalaklarning rasmini
- Harxil uy xayvonlarining rasmini,

- Har xil yovvoyi hayvonlarning rasmini
- Go'zal xiyobonlarni
- Zilol buloqlarni, ariqlarni

Yuqorida ko'rsatilgan rivoyat asosida arislon yumron qoziqqa shavqat ko'rsatish natijasida uni ham bir kulfatdan asradi demak biz ham tabiatni, qushlarni, hayvonat olamini, kapalaklarni, zilol suvlarni asrasak tabiat ham bizga shunday munosabatda bo'ladi.

Bunda jamiyatda insonlar bir – biriga muhtoj bo'lsin va bir – biriga hurmat bilan bog'lansin, degan hikmat bor.

Bu qissa aql egallari uchun ibratlidir».

Demak, bu orqali o'quvchilarga najotni ham mehrda va yaxshilikda rivoyatlar orqali yaxshilik, insoniylik, o'zaro surmat va shu kabi xislatlarni shakllantirishni amalga oshirish mumkin. Bu bilan aqliy tarbiyaning bir yo'nalishini ham mazmunan, ham ma'nan boyitishga eshiriladi.

UMUMIY XULOSALAR

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini har tomonlama yetuk shaxs qilib tarbiyalashda rivoyatlar vositasida yuksaltirishning pedagogik asoslari ko'rib chiqildi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini zamon talabi asosida tarbiyalashda ularga milliy qadriyatlarni singdirishda rivoyatlardan foydalanish tizmi yo'lga qo'yildi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini milliy qadriyatlarni asosida tarbiyalashning ma'naviy jixatlari yoritildi.

Bitiruv malakaviy ishini bajarish jarayonida buyuk mutafakkirlarimizning ma'naviy – axloqiy tarbiyaga oid fikrlarini, ayniqsa ular va ularning faoliyati bilan bog'liq bo'lgan rivoyat va hikoyatlarni to'plandi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilariga milliy qadriyatlarni o'rgatishning shakl va vositalari o'r ganilib tahlil qilindi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilariga milliy qadriyatlardan foydalanish qulay bo'lishi uchun tushunchalar berildi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilariga rivoyatlar asosidagi milliy qadriyatlarni singdirish texnologiyasi joriy etildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Karimov I. A. Barkamol avlod – O’zbekiston taraqqiyotining poydevori. – T.: «Sharq», 1997. – 64 bet.
2. Karimov I. A. Ma’naviy yuksalish yo’lida. – T.: «O’zbekiston», 1998. – 480 bet.
3. Karimov I.A Barkamol avlod orzusi. – T.: «Sharq», 1999. - 181 bet.
4. Kaiimov I.A. Ozod va obod Vatan erkin va farovon hayot – pirovard maqsadimiz. – T.: «O’zbekiston», 2000 – 502 bet.
5. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. Toshkent “Ma’naviyat”. 2008 y 173 bet.
6. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, o’zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo’llari va choralar. T.: “Iqtisodiyot” 2009 y.
7. Azlarov Yu. Oila pedagogikasi. – T.: «O’qituvchi», 1998 – 272 bet.
8. Axloq odobga doir hadis namunalari. – T.: «Fan», 1990 – 169 bet.
9. Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. – T.: “O’qituvchi” 1992 y. 160 bet.
10. Javliyev T. An’analar – hayot sabog’i. – T.: «O’zbekiston», 1998. – 90 bet.
11. Jo’rayev N. Agar ogoh sen... - T.: «Sharq», 1998 – 256 bet.
12. Zunnunova A. va boshqalar. O’rat Osiyoda pedagogik fikr taraqqiyotidan lavhalar. – T.: «Fan» , 1996.- 184 – bet.
13. Yo’ldoshev J.G’. Ta’limimiz istiqboli yo’lida. – T.: «Sharq», 1996. – 224 bet.
14. Yo’ldashev J., Hasanboyev S. «Avesto» da axloqiy – ta’limiy qarashlar. – T.: «O’qituvchi», 1992 – 28 bet.
15. Milliy istiqlol g’oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. – T.: «O’zbekiston», 2000 – 89 bet.

16. Mirtursunov Z. O’zbek xalq pedagogikasi. – T.: «Fan», 1973. 124 bet
17. Munavvarov A. Oila pedagogikasi . – T.: «O’qituvchi», 1994 – 112 bet.
18. Musurmonova O Ma’naviy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasi. – T.: «O’qituvchi», 1996. – 189 bet.
19. To’raqulov X.A, Ibragimova G, Tag’ayeva Sh, Kushvaktov N.X. Barkamol avlod tarbiyasining ma’naviy – ma’rifiy asoslari G’G’ «O’MKHT mazmunini shakllantirish va takomillashtirish muammolari» Respublika ilmiy – amaliy konferensiyasi materiallari. – T.: 2001 – 36- 38 betlar.
20. To’raqulov X.A., Kushvaktov N.H. Milliy pedagogikamizning dolzarb muammolari haqida G’G’ «Boshlang’ich ta’limda innovasion texnologiyalar: muammolari, yechimlar» mavzusidagi Respublika ilmiy – amaliy anjumani materiallari. – Jizzax, 2006. – III j. – 12 – 16 betlar.
21. Falsafa. Qomusiy lug’at. – T.: «Sharq», 2004 – 496 bet.
22. O’zbek xalq pedagogikasini qayta tiklash konsepsiysi // «Ma’rifat» g. T.:1992. – 21 bet.
23. O’zbek pedagogika antologiyasi. – T.: «O’qituvchi», 1995. – 1 j. – 464 bet.
24. Hasanboyeva O., Hasanboyev J., Hamidov X. Pedagogika tarixi. – T.: «G’.G’ulom nashiriyoti», 2004 – 200 bet.
25. Hasanboyev J va boshqalar. Ma’naviy – axloqiy tarbiya asoslari. – T.: «G’.G’ulom nashriyoti», 1998 – 60 bet.
26. Hasanboyev J va boshqalar. Pedagogika (o’quv qo’llanma). – T.: «Fan», 2006 – 252 bet.
27. Q. Abdullayeva, M.Yusupova, S.Rahmonbekova “Odobnama” 2-sinf. Toshkent. 2007 yil.

**A.Qodiriy nomli JDPI “Boshlang’ich ta’lim va sport tarbiyaviy ish”
yo’nalishi 401 – guruh talabasi Hatamova Dilnozaning “Boshlang’ich ta’limda
rivoyatlar asosida milliy qadriyatlarni singdirish texnologgiyasi”
mavzusidagi bitiruv malakaviy ishiga**

X U L O S A S I

Buguni kunda ta’lim tizimida olib borilayotgan tub islohotlar zamirida yoshlarni har tomonlama barkamol shaxs qilib tarbiyalash vazifalari turadi. Shuni inobatga olgan holda buyuk siymolarning ibratli hayot yo’lini boshlang’ich sinflardan boshlab o’rgatib borish yaxshi natijalar beradi. Olib borilgan ushbu bitiruv malakaviy ishida nafaqat ma’lum bir mavzu yuzasidagi ta’lim va tarbiya muammolari balki butun insoniyat kelajagi, yoshlar tarbiyasi muammolar muhim rol o’ynaydi.

Boshlang’ich sinf o’quvchilarini har tomonlama yetuk shaxs qilib tarbiyalashda rivoyatlar vositasida yuksaltirishning pedagogik asoslari ko’rib chiqildi.

Boshlang’ich sinf o’quvchilarini zamon talabi asosida tarbiyalashda ularga milliy qadriyatlarni singdirishda rivoyatlardan foydalanish tizmi yo’lga qo’yildi.

Bitiruv malakaviy ishini bajarish jarayonida buyuk mutafakkirlarimizning ma’naviy – axloqiy tarbiyaga oid fikrlarini, ayniqsa ular va ularning faoliyati bilan bog’liq bo’lgan rivoyat va hikoyatlarni to’plandi.

Boshlang’ich sinflarda rivoyatlar orqali o’quvchilarni jamiyatga ongli munosabatda bo’lishni shakllantirishning axborotli ta’minoti amalga oshrildi va unga oid barcha adabiyotlar to’liq o’rganilib chiqildi va muallif tomonidan o’ziga xos ilmiy xulosalar chiqarildi.

Hatamova Dilnoza tomonidan olib borilgan bitiruv malakaviy ishi “Boshlang’ich ta’limda rivoyatlar asosida milliy qadriyatlarni singdirish texnologgiyasi” mavzusini to’liq yoritishga xzmat qiluvchi bitiruv malakaviy ishi usullari belgilanib olindi.

Men, Isoqulov Mamadoli ushbu bitiruv malakaviy ishini to’liq tugallangan ish deb hisoblab uni himoyaga tavsiya etaman.

Ilmiy rahbar:

Isoqulov M.R.

**A.Qodiriy nomli JDPI “Boshlang’ich ta’lim va sport tarbiyaviy ish”
yo’nalishi 401 – guruh talabasi Hatamova Dilnozaning “Boshlang’ich ta’limda
rivoyatlar asosida milliy qadriyatlarni singdirish texnologgiyasi”
mavzusidagi bitiruv malakaviy ishiga**

T A Q R I Z

Boshlang’ich sinf o’quvchilarini milliy- ma’naviy qadriyatlар bilan tanishtirishda ota – bobolarimiz tomonidan tarbiya tizimida keng qo’llanib kelingan vosit alardan foydalanish maqsadgа muvofiq hisoblanadi. Bugungi kunda yoshlarning aql – zakovatini hisobga olgan holda ta’lim – tarbiya berishda ilg’or texnologiyalardan foydalanish orqali ko’zlangan maqsadgа erishish eng samaralti usul hisoblanadi.

Boshlang’ich sinf o’quvchilarini har tomonlama yetuk barkamol shaxs qilib tarbiyalash bugungi kunning dolzarb masallaridan biridir. Bizga ma’lumki bu yoshdagi o’quvchilar ertak va rivoyatlarga juda qiziqqan bo’lib, ular rivoyatlardagi qahramonlarga havas qilishi yoki bo’lmasa salbiy qahramonlarning qilayotgan ishlaridan nafratlanishi mumkin. Shuning uchun ham bu yoshdagi o’quvchilarni rivoyatlar asosida milliy qadriyatlarni singdirishning o’rni beqiyos.

Bitiruvchi Hatamova Dilnoza tomonidan “Boshlang’ich ta’limda rivoyatlar asosida milliy qadriyatlarni singdirish texnologgiyasi” mavzusida bajarilgan bitiruv malakaviy ishi kirish, 2 bob, xulosa va adabiyotlar ro’yxatidan iborat.

Ushbu bitiruv malakaviy ishi kirish qismida ishning dolzarbligi, obekti, predmeti, vazifalari, ilmiy yangiligi talab darajasida rasmiy lashtirilgan.

Bitiruv malakaviy ishi ikki bobdan, birinchi bob “Boshlang’ich sinf o’quvchilariga milliy - ma’naviy qadriyatlarni singdirish” deb nomlangan.

Bitiruv malakaviy ishining ikkinchi bobи “Boshlang’ich sinf o’quvchilariga milliy qadriyatlarni singdirishda foydalanish tizimi” deb nomlangan.

Bitiruvchi tomonidan yozilgan bitiruv malakayaiy ishi ilmiy jihatdan asoslangan, ayrim juziy kamchiliklarga yo’l qo’yilgan. Bu kamchiliklar ishning mazmuniga salbiy ta’sir o’tkazmaydi.

Ishni yakuniy davlat attestasiyasi huzurida himoya qilishga tavsiya yetaman.

Umumi pedagogika kafedrasi dots.:

Kushvaktov N.X.